

**NEW !!!**

**SJIF: 4.995**

*Volume - 9*

*Issue - 3*

# PEDAGOGS

International research journal

ISSN:2181-3027



**PEDAGOGLAR.UZ**  
*Scientific Research Center*

# **PEDAGOGS**

*legal, medical, social, scientific journal*

**IN ALL AREAS**

*Volume-9, Issue-3, May–2022*



**ICI JOURNALS  
MASTER LIST**

# TAHRIRIYAT | EDITORIAL

**Editor in chief**

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

**Executive Secretary**

Abdurahmonov Boburjon

*He is mathematic teacher at  
Uzbekistan District 49 Secondary School*

**Preparing for publishing**

Xoliqov Toxirjon Shavkatjon ugli

**Bosh muharrir**

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

**Mas'ul kotib**

Abdurahmonov Boburjon

*O'zbekiston tumani 49-umumiyl o'rta  
ta'lif maktabi matematika fani o'qituvchisi*

**Nashrga tayyorlovchi**

Xoliqov Toxirjon Shavkatjon o'g'li

## TAHRIRIYAT KENGASH A'ZOLARI | EDITORIAL BOARD MEMBERS

*Inobatxot Mirzaraximova*

*Rishton tuman XTB mudiri*

*Umida Barzieva*

*Farg'ona viloyat xalq ta'lifi boshqarma metodisti*

*O'rionov Ahmadjon Qo'shaqovich*

*Farg'ona Davlat Universiteti, Matematika fanlari doktori, professor*

*Toshboltayev Muhammadjon*

*Toshkent mashinasozlik institute, Texnika fanlari doktori, Professor*

*Qodirov Nabijon O'lmasovich*

*O'zbekiston xalq ustasi, (usta kulol)*

*Turdiyev Azizbek Anvarovich*

*O'zbekiston madaniyat va san'at vazirligi, journalist*

*Ne'madaliyev A'zam Muhammadjonovich*

*Cyberlayn firmasi asoschisi, iqtisod fanlari nomzodi, PhD*

*Mohinur Saidova*

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Sharifaxon Xakimova*

*Farg'ona tumani 4-maktab matematika fani o'qituvchisi*

## TAHRIRIYAT MANZILI | EDITORIAL ADDRESS

**UZB: 712000. Farg'ona viloyati, Rishton shahri, Istirohat bog'i ko'chasi 24-uy**

**[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz), E-mail: [info@pedagoglar.uz](mailto:info@pedagoglar.uz) Tel: +998 90 905-14-30**

**ENG: 712000. Fergana region, Rishtan city, Park park street 24**

**[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz), E-mail: [info@pedagoglar.uz](mailto:info@pedagoglar.uz) Tel: +998 90 905-14-30**

**THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION  
OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON**

**Tojimamatov Jamshidbek Iqboljon O'g'li**

*3rd year student of the Faculty of Pedagogy and Psychology,*

*Fergana State University*

**Egamberdiyev Oyatillokh Alisher o'g'li**

*3rd year student of the Faculty of Pedagogy and Psychology,*

*Fergana State University*

**Annotation:** The formation of a healthy lifestyle in our society, the creation of conditions suitable to the modern requirements for the regular cultivation of morality, especially the younger generation with physical education and mass sports, the strengthening of confidence in the Will, strength and opportunities of the young people through sports competitions, courage and patriotism, the perfection of feelings of loyalty to, systematic organization of the work on selection of ICT athletes among young people is also carried out wide-scale work aimed at further development of physical education and mass sports. In this article, opinions and comments are made about the importance of physical education in the formation of psychological health of a person.

**Keywords:** personality, psychology, Sports, Physical Culture, Health, Development, mental and physical health.

Today, in all regions of our country, there are important and urgent tasks in terms of improving the system of targeted training and promoting the autonomy of mass sports in the life of Man and family, its promotion as the basis of physical and spiritual health, preservation of harmful habits of young people entering the life with great hope, creating the necessary conditions.

Physical education and sports are an integral part of people's culture, the basis of ensuring the physical and moral perfection of a foreign citizen of the country. The moral and moral education of the younger generation on the basis of national idea, without doubt, will strengthen and protect physical and mental health, form the foundations of a healthy lifestyle. In the process of educating the ideals of active life position, morality, goodness and humanity in young people, the use of Physical Culture and sports forms, methods and tools should be one of the main priorities.<sup>1</sup>

Wide coverage of reforms in the sports sphere is being carried out in our country. In particular, a lot of attention is paid to children's sports, a catarrhal event and changes are carried out, sports facilities in all regions of our country are installed in the framework of modern requirements, they are equipped with modern sports equipment.<sup>2</sup> The conditions created on the basis of such characters lead to a change in the attitude to the sport in children. Now they are accustomed not only to engage in sports in their spare time, but also to engage in regular activities, realizing that sport is the basis of Health and splendor.

It is known to all that there will be no development, growth in the economy, in the social and spiritual spheres, in the state and society, without a professionally prepared, educated, spiritually and morally rich, physically healthy person. Therefore, the priority objective of the national program of training of personnel is to educate a competent person through the use of continuous system of education, interaction of social institutions, as well as purposeful rich pedagogical physical education and tremendous opportunities of sport. The achievements in the formation of a person in the process of physical education are determined according to how

---

<sup>1</sup> Kashbakhtiev I.A. Basics of valeology. Textbook for physical education faculties of the Institute of physical education and higher education institutions. The T., Leader Press. - 2005. – 252-p

<sup>2</sup> The measures for the further development of physical education and mass sports are in Tigris. The newspaper "national word" dated June 6, 2017 numbered 111 (6855).

successfully the special tasks of physical education are carried out, as well as how competently the opportunity in the development of a person in this process is used. The methodology of such educational work should include teachers and group leaders in science, teachers of vocational colleges and academic lyceums, teachers of higher educational institutions and other teachers.

Physical perfection characterizes the aspirations of the individual, legally considering the process of its development through the chosen sport or physical-cultural and sports activities, ensuring its holistic development as a dynamic circumstance. At the same time, according to its functional and socio-psychological characteristics, the opening and development of its individuality provides for the choice of means. Therefore, both physical perfection is considered to be the necessary and necessary element of the composition of its individual characteristics, and not so much as the quality of the mistress or lover of the newly growing specialist. Physical, cultural and sports activities of students are one of the effective ways of combining collective and personal interests, individual exteriors with collective needs. It is its specialized core, which is the relationship that develops the physical and spiritual environment of the individual, enriches it with norms, ideals, personnel properties. In this case and in the process, it is observed that in the characteristics of the individual, social competence occurs, develops, and results in the exclusion of its natural internal forces.

The targeted feature of such activity is the fact that it is a powerful means of increasing the social activity of an individual. The physical culture of the individual manifests itself in three main directions. First, it determines the dignity of self-development, reflects the development orientation of the "self", based on the social and spiritual qualification of the individual, ensures creative "self-vision" aspiration, self-perfection.<sup>3</sup> Second, physical culture is the basis of a new future specialist who

---

<sup>3</sup> Kerimov F. A. Theory and methodology of sports wrestling.-T:npublishing house, 2007. – T: 326.p

organizes and initiates his activity, demonstrates creativity in the use of Physical Culture tools directed at his professional cocktail and subject. Therefore, physical culture is a reflection of a person's creativity, which is aimed at relations with others in the process of physical, cultural and sports, collective and professional activity, and at ensuring the development of skills and skills to work on himself, as well as enrich and strengthen his personal capacities. In this activity, the more Relations a person has with relatives, relatives and surrounding people, colleagues, the richer and richer the greater the area of attraction, which manifests itself in the inner-subjective world.

**In conclusion**, it is necessary to take into account all factors in the formation of a harmonious generation in our country and in carrying out extensive reforms. In particular, physical education and sports as one of the main factors in the further development of the youth's interest in sports acquires an important role.

## **REFERENCES:**

1. The measures for the further development of physical education and mass sports are in Tigris. The newspaper "national word" dated June 6, 2017 numbered 111 (6855).
2. Kerimov F. A. Theory and methodology of sports wrestling.-T:npublishing house, 2007. – T: 326.p
3. Kashbakhtiev I.A. Basics of valeology. Textbook for physical education faculties of the Institute of physical education and higher education institutions. The T., Leader Press. - 2005. – 252-p
4. Babansky Yu. K. "Methodological foundations of optimization of the educational process" 1982 - 480 p.
5. Kovalko V.I. Health-saving technologies in primary school. 14 classes. M.: "WACO", 2004, 296 p. - (Pedagogy. Psychology. Management).

**MAKTABDA ONA TILI PREDMETI VA ONA TILI METODIKASINING  
ZAMONAVIY USULLARI UNING MAZMUNINI MODDIYLASHTIRISH  
DARAJALARI**

***Elmira Masharipova Xudayorovna***

*Tuproqqa'l'a tumani 2-maktab*

*Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ona tilidan ta'lim mazmunini moddiylashtirish shakllari. Ta'lim mazmuni murakkab hodisa bo'lganligi uchun ta'lim jarayoniga olib kirgunga qadar ularga pedagogik ishlov beriladi. Avvalo, darslik mualliflari ta'lim mazmuniga ishlov berib, uni o'quv materiali shakliga olib kelishadi: ta'rif, aniqlik, qoidalarni bolalaming yoshi, tayyorgarligi, bilish imkoniyatlariga moslashtirilishi haqida.

**Kalit so'zlar:** Ona tili predmeti, nazariy va amaliy xususiyatlari, o'quv predmetlari.

**Kirish:** Ona tili didaktikasining asosiy vazifalaridan biri maktab ona tili predmetining xususiyatlari, tarkibiy qismlarini tavsiflash, uning mazmunini moddiylashtirish darajalarini asoslashdan iborat. Maktab ona tili predmeti tilshunoslik fanining umumiy asoslarini yoshlarga o'rgatishga m oijallangan. Shunday ekan, o'zbek tilshunosligi va ona tili predmetining o'xhash hamda farqli tomonlari nimalardan iborat? Ona tilining umumiy asoslarini qanday tushunmoq kerak? Hali ham maktab o'qituvchilari, mutaxassis-metodistlar faoliyatida ona tilidan ma'lumot va ta'lim mazmunlarini farqlamaslik hodisasi uchrab turadi. Agar ona tilidan ma'lumot va ta'lim mazmuni o'zaro daxldor ikki xil hodisa boisa, ularning har birini moddiylashtirish darajalari mavjudmi? Ona tili predmeti va ona tili darsliklari bir narsami yoki ulami bir-biridan farqlash zaruriyati bormi? Bu

savollarga javob izlash maktablarda ona tili o‘qitishning nazariy va amaliy xususiyatlarini tavsiflashga imkoniyat yaratadi.

**Asosiy qism:** Ona tili didaktikasi sohasidagi eng dolzarb muammo.- lardan biri ona tilidan ma’lumot mazmunini turli ijtimoiy institatlarga — maktabgacha ta ’lim muassasalari, boshlang‘ich ta’lim, umumiyl o‘rta taiim maktablari, kollej, litsey hamda oliy o‘quv yurtlariga moslab tanlashdan iborat. Ona tilidan m aium ot mazmuniga pedagogik ishlov berish va uni bolalarning bilish imkoniyatlariga moslashtirish yo‘li bilan turli ijtimoiy institutlar o‘rtasida vorislik o’matiladi.

Ona tilidan ma’lumot berish yo‘nalishlari. Barcha o‘quv predmetlariga o‘xshab ona tilidan ma’lumot berish ham uch yo‘nalishda tashkil etiladi: hozirgi o‘zbek tilshunosligining umumiyl asoslardan m a’lumot berish va shu orqali bolalami fikrlashga, nutqni tuzish va ijro eta olishga o‘rgatish; o‘quvchilarning aqli, zehni, tafakkurini rivojlantirish; bolalarda o ‘z nutqi, o‘zgalar nutqi, tilga m unosabatni tarbiyalash. Hozirgi o‘zbek tilshunosligi fanining umumiyl asoslari tilning fonetikasi, leksikasi, grammatikasi to‘g’risidagi tasavvurlardan iborat. Til haqidagi tasavvurlarning mohiyati va jam iyatda bajaradigan ishiga qarab ikki guruhga ajratm oq ma’qul:

- a) kundalik turmush va kishilarning o‘zaro aloqalashuvi uchun zarur bilimlar;
- b) tilni, til to‘g’risidagi tasavvurlarni, binobarin, tilshunoslikni rivojlantirishga daxldor bilimlar. Maktab ona tili predmeti negizini kishilarning o‘zaro aloqalashuvi uchun zarur bilimlar tashkil etadi.

**Xulosa:** Kishilarning o‘zaro aloqalashuvi, o‘z fikr va muloha□zalarini nutq sharoitiga mos shakllarda bayon qilish uchun zaruriy bilimlar tilning fonetikasi, leksikasi, grammatikasi to‘g’risidagi tasavvurlardan tanlab olinadi. Garchand, maktabda fonem a, leksema, sintagm a, morfema kabi qator tushunchalarni o‘rgatish ko‘zda tutilmagan bo‘lsada, nutq tovushi va uning yozuvdagi belgisi — harf, nutq tovushlarining m a’no ajratish xususiyatlari, ularning artikulyatsiyasi, nutq tovushlarining tu rlari (unli va undosh, jarangli va jarangsiz), bo‘g‘in, uning turlari( ochiq va yopiq va sh.k.), urg‘u va uni nutqda to‘g‘ri qo‘llash,

so‘z m a’nolari (o‘z va ko‘chma m a’no, yaqin ma’no, qarama-qarshi ma’no), so ‘z yasovchi, so‘z o‘zgartuvchi, tuslovchi, turlovchi qo‘srim chalar, so‘z turkumlari, turli sintaktik qurilma (konstruksiya)lar (so‘z birikmasi, gap, sodda va qo‘shma gap) kabilar ona tili ta ’limining asosini tashkil etadi.

**Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. T a’lim taraqqiyoti jurnali 1-maxsus son. U m um iy o ‘rta ta’limning davlat ta’lim standard va o‘quv dasturi (Ona tili).—T.: 1999.
2. TOSHTEMIROVA M. Ona tili darslarida o ‘quvchilaming nutq madaniyatini shakllantirish. Ta’lim jarayonida nutq mada□niyatini takomillashtirish masalalari. «O‘zbek tili» Doimiy Anjumani beshinchi yig‘ilish tezislari to'plami ( 1999-yil 29-30aprel). — T.: «Sharq», 1999.
3. XUDOYBERGANOVA M. Uchinchi sinfda ona tili darslari.— T.: 1988.
4. XUDOYBERGANOVA M. Ikkinci sinfda ona tili darslari. — T.: 1977.
5. XO ‘JAYEV A. Izohli metodikaning ba’zi masalalari. — T.:1968.

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI IJODIY FIKRLASHGA  
O‘RGATISHDA MUSTAQIL ISHLARNING O’RNI**

*Xo‘jamatova Zumrat Isayevna*

*Xorazm viloyati Tuproqqa'l'a tumani*

*2-son maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy fikrlashga o‘rgatishda mustaqil ishlarning o’rni haqida bo’lib turli metodlar ham keltirilgan

**Kalit so'zlar:** Topshiriqli diktantlar, nazariy bilimlarini mustahkamlash, masalalarning yechimi, ta’minlash infrastrukturasi.

**Kirish:** “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da uzlusiz ta’limning barcha bo‘g‘inlarida ta’lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy bilimlarini oshirish, tahsil oluvchilarning ta’lim-tarbiyasini takomillashtirish, madaniyatli va o‘z e’tiqodiga sodiq yoshlarni tarbiyalashga bo‘lgan e’tiborni har qachongidan ham kuchaytirish zarurligiga alohida urg‘u berilgan. Jamiyat a’zolarining ijtimoiy faolligi ularning ilmiy salohiyati hamda ilmiy dunyoqarashi bilan belgilanadi. Hozirgi davrda taraqqiy etgan davlatlarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy ravnaqi fan taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Kadrlar tayyorlash milliy modelida fanning tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi fundamental va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini ilmiy jihatdan ta’minlash infrastrukturasini vujudga keltirish, mamlakatimiz ilm-fanining jahon ilm-faniga integratsiyasini tashkil etish kabi vazifalar belgilab berilgan. Bunday dolzarb vazifalar tizimida yosh avlodni mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ta’lim sohasidagi islohotlar faqat

malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qilib qolmay, balki fuqarolik jamiyatining ilmiy salohiyatini rivojlantirishga ham qaratilgandir.

**Asosiy qism:** Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida qo‘llaniladigan mustaqil ish turlari Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi usullardan yana biri - mustaqil ish metodidir.Nafaqat boshlang‘ich sinflarda, balki umuman ta’lim sohasida keng qo‘llaniladigan o‘quvchilarning mustaqil ishlari ta’lim samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida doimiy ravishda tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Metodist olimlar mustaqil ishlardan dars jarayonida keng foydalanishni doimo yoqlab chiqqanlar. Chunki o‘quvchilarning bilimlarni egallash va mustaqil fikrlashga o‘rgatish, avvalambor, mustaqil ishlarni bajarish, oldida turgan muammo va masalalarining yechimini topish jarayonida shakllanadi.Shunday ekan, o‘quvchilarning mustaqil ishlari nima degan savolga to‘xtalib o‘tmoq joiz. Unga turlicha javob bergenlar. Jumladan, ba’zi olimlar mustaqil ishlar deganda o‘qituvchining bevosita yordamisiz, ammo uning nazorati ostida bajariladigan vazifalarni tushunishsa, boshqalari o‘quvchilardan faol aqliy faoliyatni, tashabbuskorlikni, avval olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llashni talab qiladigan ishlar deb bilishadi. Masalan, pedagogika fanlari doktori, professor A.G‘ulomov mustaqil ishlarga shunday ta’rif beradi: «Mustaqil ishlar deganda biz, avvalo, o‘qituvchining bevosita rahbarligida uyuştiriladigan hamda o‘quvchilarning ona tilidan egallaydigan nazariy bilimlarini mustahkamlash va ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladigan, ma’lum maqsadga qaratilgan faol ongli faoliyatni tushunamiz». ona tili darslarida qo‘llaniladigan mustaqil ishlarni «o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko‘rsatmalari va rahbarligida bajariladigan, nazariy-amaliy materiallar ustida uyuştiriladigan, o‘quvchilarning ongli ravishda faoliyat ko‘rsatishlarini ta’minlaydigan grammatik, orfografik vazifalar» sifatida tushunadi.

Bizningcha, mustaqil ishlar o‘quvchilarning aqliy imkoniyatlarini namoyon qilishga imkon beradigan, o‘qituvchining bilvosita va bevosita ishtirokida, ammo bevosita yordamisiz nazariy-amaliy materiallar ustida bajariladigan vazifalar bo‘lib,

o‘quvchilarning nafaqat bilim darajalarini, balki ularning o‘zlashtirgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay bilişlarini, mustaqil va mantiqiy fikrlash darajalarini aniqlash va shakllantirish imkoniyatini beradigan ongli amaliy faoliyatdir. Mustaqil ishlar tasnifiga oid bir qancha qarashlar mavjud. Metodist olimlar guruhlarga ajratishda mustaqil ishlarning u yoki bu jihatlariga e’tibor qaratganlar. Mustaqil ish turlarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy fikrlashga o‘rgatishdagi o‘rni Barcha o‘quv predmetlarida bo‘lgani kabi boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ham o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda mustaqil ishlar muhim o‘rin tutadi. Ular quyidagi xususiyatlariga ko‘ra xarakterlanadi:

- mustaqil ishlarda bajarish so‘ralgan shartlar o‘quvchilardan izlanuvchanlikni talab qilishi;
- o‘quvchilarni mustaqil holda hukm, xulosa va umumlashmalar chiqarishga yo‘naltirishi;
- mustaqil ishlarni bajarish jarayonida o‘quvchilarda yangi bilimlarni egallashga ehtiyoj tug‘ilishi. Reproduktiv mustaqil ishlar. Reproduktiv mustaqil ishlar o‘quvchilarning avval olgan bilimlarini amalda qo‘llashni nazarda tutadi.

**Xulosa:** Bunday mustaqil ishlarga namuna asosidagi mustaqil ishlar, sharhlab yozish, grammatik topshiriqli diktantlar kiradi. Bu xildagi mashqlar o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritish jarayoniga qisman ta’sir ko‘rsatadi va u ko‘pincha darslik mashqlari asosida o‘tkaziladi. Quyida darslikdan tashqari bo‘lgan namuna asosidagi mustaqil ishlarning ayrim variantlarini keltiramiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi usullardan yana biri - mustaqil ish metodidir. Nafaqat boshlang‘ich sinflarda, balki umuman ta’lim sohasida keng qo‘llaniladigan o‘quvchilarning mustaqil ishlari ta’lim samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida doimiy ravishda tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Metodist olimlar mustaqil ishlardan dars jarayonida keng foydalanishni doimo yoqlab chiqqanlar. Chunki o‘quvchilarning bilimlarni egallash va mustaqil fikrlashga o‘rgatish, avvalambor, mustaqil ishlarni bajarish, oldida turgan muammo va masalalarning yechimini topish jarayonida shakllanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tolipov O. Umumiy pedagogika Toshkent: 2007-y.
2. Yo'ldashev O. Pedagogika Toshkent: 2008-y.
3. Xasanboeva O. Oila pedagogikasi. Toshkent: 2007-y.
4. Daminov T, Adambekova T. O'yin mashg'ulotlari. Toshkent: 1993-y

**O‘QUVCHILARDA IJODIY FIKRLASH, MUAMMOLARNI HAL ETA  
OLISH VA BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH PSIXOLOGIYASI**

*Navbaxor Nazarmuhamedova Saparboyevna*

*Toshkent shahar Yunusobod tumani 4 mavze*

*302 - maktab pedagog psixolog*

*Tel: 977256145*

**Annotatsiya:** Maqolada o’quvchilarning ijodiy fikrlashlari, muammolarni hal eta olish va bilimlarini rivojlantirish psixologiyasiga oid tushunchalar keltirilgan

**Kalit so’zlar:** O’quvchilarda ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlardan chiqa olish va bilimlarini rivojlantirishda zamonaviy yondoshuvlarning o’rni, O’quvchilarda ijodiy fikrlashga o’rgatishda TRIZ texnologiyasidan foydalanish

Bugungi kunda ilmiy, uslubiy adabiyotlarda «ijod», «ijodkorlik» kabi atamalarni uchratib qolmoqdamiz. Bu atamalarning adabiyotlar sahifalarida paydo bo‘lganligi bejiz emas.

«**Ijod**» so‘zining lug‘aviy ma’nosи: «yaratish», «yangilikni kashf etish» so‘zlariga monand keladi.

**Ijodkorlik**-faoliyatning turli holatlarida paydo bo‘ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliv tarzda paydo bo‘lishidan, namoyon bo‘lishigacha jarayonini o‘z ichiga oladi. Shaxsda faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi ilgari maqsad qilib qo‘yilmagan, hal etuvchi vosita bo‘lib hisoblanmagan intilishdir.

**Kreativlik** (lot., ing. “kreate” – yaratish, “kreative” yaratuvchi, ijodkor) – shaxsning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligi tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi.

**Ijodkorlik**- sifat jihatdan yangi, moddiy va ma’naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayoni. Ijodkorlik o‘zida insonning mehnatda namoyon bo‘lgan

qobiliyatini ifodalaydi. Ob'ektiv olam qonuniyatlarini bilish asosida xilma-xil ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantiradigan yangi haqiqatni yaratadiganday mehnat ijod bo'lishi mumkin. Ijod turlari bunyodkorlik faoliyati bilan belgilanadi: ixtirochi, tashkilotchi, mehnati ilmiy va badiiy mehnat va boshqalar. Ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar ijtimoiy munosabatlarga bog'liq. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan , texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq. SHunga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti talabalaridan kelib chiqqan holda har bir o'quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

Psixolog olim N.D.Levitov ijodiy faoliyatni quyidagi mezonlar asosida vujudga kelishini isbotladi<sup>1</sup>:

- tafakkurning mustaqilligi;
- o'quv materialining o'zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi;
  - standart bo'limgan vazifalarni hal qilishda, aqliy chamalashning (topqirlilikning) tezligi;
  - o'rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali muhim bo'limgan narsadan muhimini ajrata bilish.

O'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish shart-sharoitlari deganda, avvalo ana shu shart-sharoitlarning paydo bo'lishi, amalga oshishi hamda rivojlanishi jarayoni tushiniladi.

Ular quyidagilardan iborat :

1. O'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirishda ularning bu borada egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari.
2. Ijodiy faoliyatni shakllantirishda nazariy bilimlar bilan amaliyotning aloqadorligi.

---

<sup>1</sup>

3. Ijodiy faoliyatni shakllantirishga doir mashg‘ulotlar evristik muammoli vaziyatlar yaratish.

4. O‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga texnologik yondashuv.

Bu shart-sharoitlar quyidagicha amalga oshadi :

O‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishda ular egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka, ko‘nikmalarga quyidagi talablar qo‘yiladi.

- dastur materiallarni qay darajada o‘zlashtirganligi ;
- mavzularga doir asosiy tushuncha va qoidalarni o‘zlashtirganligi;
- tanlagan mavzu bo‘yicha topshiriqlarni mustaqil bajara olishi ;
- o‘rganilayotgan mavzulardagi asosiy muammolarni anglab olishi ;
- topshiriqlarni bajarishda o‘quv ashyolari va texnika vositalar, axborot texnologiyasidan foydalana olishi ;
- o‘z qobiliyatini namoyon etishi va uni rivojlantira olishi ;
- mavzu bo‘yicha o‘z oldiga erishiladigan maqsadlarni qo‘ya olishi, rejalar tuzishi va natijalarni baholay olishi ;
- mavzularni o‘rganishda o‘z fikrini dalillay olishi;
- o‘z variantini tavsiya eta olishi va hokazolar.

Mazkur talablar o‘qituvchiga o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari, ularning o‘quv-biluv faoliyati, individual moyilliklarini bilish imkoniyati paydo bo‘ladi va bu borada o‘quv jarayoni tuzilmasini belgilab olishga yordam beradi.

Evristik faoliyatni texnologiyalashtirish bolalarning ijodiy qobiliyatini qanday bo‘lsa shu qadar zaruriy va qonuniy jarayondir.

Yagona o‘quv mashg‘uloti, o‘quv kursi bo‘yicha tizimli mashg‘ulotlar, evristik yo‘naltirilgan faoliyat asosida sodir bo‘ladi<sup>2</sup>.

Evristik vaziyatlar yaratish va rivojlantirish bo‘yicha texnologik harakat-bolalar ijodkorligi natijalarini ta’minlash yo‘lidir. Quyida evristik vaziyatlar

tayyorlash va o‘tkazish bo‘yicha o‘qituvchilar uchun texnologik yo‘l-yo‘riqlar haqida fikr yuritamiz:

1. Izlanuvchi vaziyatning asosiy ta’limiy ob’ektini (narsa, tushuncha, hodisa, jarayon, an’ana, buyum va boshqalar). Bunda ob’ekt va bolalar uchun qiziqarli bo‘lgan muammoni aniqlash; bolalarga ularning o‘rganilayotgan ob’ekt bilan shaxsiy ichki aloqasini topishga yordam berish, ular uchun shaxsan ahamiyatli muammolarni qanday tayyorlash bo‘yicha o‘ylashga yo‘naltiradi. Buning uchun shaxsiy tajriba va o‘quvchilarining qo‘yiladigan ta’limiy natijalari taxminlanadi.

2. Bolalarga yechimi noma’lum bo‘lgan muammo yoki topshiriq beriladi. Ushbu topshiriqnini amalga oshirish sinfda ta’limiy ko‘tarinkilik hamda o‘quvchilar topshiriqnini bajarish orqali o‘zlarining faolligini namoyon etgandagina samarali bo‘ladi.

Topshiriqning ta’riflanishi muammoni jamoa bo‘lib muhokama qilishning natijasi bo‘lishi mumkin. Bolalar tomonidan ta’riflangan topshiriq shunchaki qiziqarli emas, balki o‘qituvchi uchun yangilik bo‘lsagina maqsadga erishilgan bo‘ladi.

3. O‘quvchining o‘zi paydo bo‘lgan yoki yaratilgan vaziyat (topshiriq)ni shaxsan hal etishga imkoniyat yaratish. Evristik vaziyatning asosiy bosqichi sanaladi. Bunda har qanday ta’lim natijasidan ijod belgisini aniqlash lozim.

4. o‘quvchilarining ta’limiy ijod namunalarining namoyish etish: she’rlar, rivoyatlar, topshiriqlar, ta’riflar, ramzlar, rasmlar, loyihibar va shu kabilarni jamoaga muhokama etib, ko‘rgazmalar tashkil etish, o‘zaro yozma taqrizlar yozdirish, ma’ruzalar bilan chiqishlar qilish.

5. Ta’limiy ijod namunalari namoyish etilgandan keyin rasmlar, rivoyatlar, ta’riflar, olimlarning fikrlari, darsliklaridagi ma’lumotlar, shaxsiy bilim va tasavvurlari bilan asoslay olish.

6. Bolalarning ijod namunalarini qiyoslash, solishtirish, tasniflash bo‘yicha faoliyatini tashkil etish. O‘quvchilar tomonidan o‘z qarashlari yoki ijod

namunalarini aniqlash hollari yuz bersa, ularga o‘z nuqtai nazarlarining o‘zgarish sababalrini tushunishlarida ko‘maklashiladi. Ta’limiy vaziyatlarning rivojlanishi ta’minlanadi.

7. O‘quvchilarining bilishga oid qo‘llanilgan usullarni, paydo bo‘lgan muammo va uni yechish yo‘llarini tushunishi bo‘yicha fikr yuritish, tahlil etish. O‘quvchilarga individual tarzda erishgan natijalarini aniqlashda ko‘maklashishi. Jamoa bo‘lib yaratilgan ta’limiy natijalarini aniqlash.

Izlanuvchi ta’limiy vaziyatlarning davomiyligi o‘zgarib turadi, ular o‘zaro aloqadagi vaziyatlar zanjiri ham bo‘lishi mumkin. Izlanuvchi vaziyatlar tamoyillarida izlanuvchi ta’limni tashkil etishdarajasi:

Boshlang‘ich ta’lim dasturlari, o‘qitilayotgan o‘quv predmetlarining tahliliy natijalari shuni ko‘rsatadiki, 1-4- sinf o‘quvchilarida ijodiy faoliyatni shakllantirishni bir necha bosqichda amalga oshirish uchun imkoniyat yaratilgan, jumladan, darsda o‘quvchilarining ijodiy faoliyatiga yo‘naltirilgan o‘quv materiallarini to‘g‘ridan -to‘g‘ri taqdim qilinishi belgilanmagan bo‘lsa-da, mahoratli o‘qituvchi o‘z faoliyatini o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirishni turli metodlar asosida amalga oshirishi mumkin. Og‘zaki so‘rash; yozma ishlar o‘tkazish; amaliy ishlarni bajarish; turli didaktik o‘yinlar o‘tkazish orqali o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini shakllantirish mumkin. Masalan, boshlang‘ich sinflarning «O‘qish» darsida bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirish uchun o‘quv materiallarida berilgan tushunchalar konkret – induktiv metod vositasida o‘rganilishi va o‘qituvchining mohirona darsni tashkil qilishi natijasida ularda ijodiy faollikning oshishiga zamin yaratilishi mumkin. Bunda o‘quvchilar avval o‘qituvchining topshiriqlarini bajargan holda o‘rganilayotgan tushunchaning umumiylarini aniqlaydilar, so‘ngra o‘qituvchi rahbarligida ta’rifni mustaqil holda tuzishga harakat qiladilar. Yangi tushuncha kiritishning bu yo‘li ayniqsa quyi sinflarda o‘z samarasini beradi.

O‘quvchilarining yosh xususiyati bilim saviyasidan kelib chiqqan holda muammoli vaziyatlar yaratishning quyidagi usullaridan foydalanish mumkin:

1. Ona tili darsligida berilgan mavzularni qiyoslab o‘rgatish orqali muammoli vaziyat yaratish, chunonchi o‘rganilayotgan har bir mavzu o‘quvchilardan tovushlar, so‘zlar va gaplarni qiyoslashni shu asosda umumlashmalar hosil qilishni talab etadi. Bu ham o‘z-o‘zidan ravshanki, muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. O‘quvchilarda “Nima uchun?” degan savolga javob izlashga ehtiyoj tug‘iladi. Masalan “unli va undosh tovushlar” mavzusi o‘rganilayotganda o‘quvchi avval unli va undosh tovushlarni to‘g‘ri nomlashni, keyin qiyoslashni, unli va undoshlar ishtirokida so‘zlar, so‘zlardan esa gaplar hosil qilishni, ularning bir-biridan farqlarini aniqlashni talab etadi.

2. Muammoli savollar berish orqali muammoli vaziyat yaratish.

O‘qituvchi dars mashg‘ulotini muammoli savolni o‘rtaga tashlash bilan boshlaydi:

1. Unli va undosh tovushlarni alohida aytib ko‘ring.

Ularni talaffuz qilishda qanday farqni sezayapsiz?

2. Oltita unli va harf ishtirok etgan so‘z yozing. Ulardagi unlini boshqa unli bilan almashtirib ko‘ring, qanday o‘zgarishlarni sezayapsiz?

3. Undosh tovushlarning talaffuz etib ko‘ring. SHovqin ovozdan hosil bo‘lgan undoshlarni alohida, faqat shovqindan hosil bo‘lgan undoshlarni alohida yozing.

Agar topshiriqlarni bajarish muayyan qiyinchilik tug‘dirsagina, namuna ko‘rsatadi.

4. Ramziy tasvirlar orqali muammoli vaziyatlar yaratish.

Muammoli vaziyat yaratishning bu usulida ramziy tasvirlardan foydalilaniladi. Masalan, “O‘zbekiston qovunlari” rasmlari va nomini berib, mavzuda matn yaratish topshirilishi mumkin.

5. Muammoli vaziyat yaoratishda til hodisalarini guruhlash, ajratish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, so‘zlarni muayyan uyalarga birlashtirib, umumiyl ma’noli so‘zning xususiy ma’nosini yoki xususiy ma’noli so‘zlarning umumiyl ma’nosini topishini talab qilish muammoli vaziyat yaratish imkonini

beradi. Masalan, o‘quv qurollari, mevalar, sabzavotlar, daraxtlar va gullarning o‘nlab hatto yuzlab uyadoshlari borki, o‘qituvchi umumiy ma’noli so‘zni o‘quvchi hukmiga havola etadi va qolgan so‘zlarni topishni o‘quvchilarga topshiradi.

1. Sabzavotlar: sabzi, ...
2. O‘quv qurollari: kitob, ... va hokazolar.

Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ta’limning bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan motivatsion-qiziqarli tomonlariga ham ko‘proq e’tibor berilishi lozim.

2. O‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish yo‘llari

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda ilmiy asoslangan ta’lim metodlaridan foydalanish lozim.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ijodiy qibiliyatlarini shakllantirishda munozara, bahs, suhbatlar, fantaziya o‘yinlari, modellashtirish, badiiy texnik ijodkorlik, kichik kashfiyotlar yaratish, insholar yozish, solnomalar tuzish, ishbop o‘yinlar kabi metodlar eng samarali bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinfning o‘qish, ona tili darslarida bolalarni ijodga undashning yo‘llari va imkoniyatlari juda ko‘p. Ertak qahramonlarini harakatini o‘zgartirib bolalarni yangi ertak to‘qishga, tanish ertak syujeti asosida yangi ertak yaratishga, ya’ni o‘sha qahramonlar bilan boshqa ertak to‘qishga o‘rgatish, xotira bilan bog‘liq so‘zlar va hodisilarni eslashga, sinfda hikoyachi rolini bajarishga, o‘ylab topilgan narsani aytib berishga, gap, matn tuzishga odatlantirish mumkin.

Boshlang‘ich 4-sinf o‘qish darslarida badiiy matn ustida ishlayotganda bolalarga matn ustida reja tuzish va o‘qishlarini reja asosida qayta hikoyalashga o‘rgatish bolalarning ijodiy faoliyat ko‘rsatishlariga olib keladi.

Ona tilidan o‘rganiladigan har bir mavzu, xar bir orfogramma xarakteriga muvofiq mustaqil ishlar uyushtiriladi. Ona tili darslarida o‘tkaziladigan mustaqil ishlarsh quyidagi talablar qo‘yiladi: a) mustaqil ishlar pedagogik va psixologik tomondap asoslangan bo‘lishi, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga, bilimiga moc bo‘lishi, o‘quvchilarga tilni o‘zlashtirishni qiziqtirishi lozim; b)

o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriq bolalarning o‘quv materialini faol idrok etishini ta’minlashi zarur; v) mustaqil ish xayotiy bo‘lishi, o‘rganilgan nazariy bilimlarni amaliy tatbiq etishning vositasi bo‘lmog‘i kerak.

O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida tovushni bo‘g‘inga, bo‘g‘inlarni so‘zga birlashtiradilar. Gapni so‘zga, so‘zni bo‘g‘inga, bo‘g‘inni tovushlarga ajratadilar. O‘quvchilarga tahlil qilishni o‘rgatish maqsadida ularning diqqati aniq narsalarga tortiladi. O‘qituvchi rasmlarni osa turib, (rasmda uzum, anor, shaftoli, limon, o‘rik va boshqa mevalar ifodalangan) o‘quvchilarga bunday ish beradi: rasmni yaxshilab kuzating. Unda nimalar tasvirlangan? Ularning nomini eslang. Shirin va nordon mevalarning nomini bildiradigai so‘zlarni guruhlarga ajrating. O‘ylang, yana qaysi mevalar shirin va nordon bo‘ladi. Bunday topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilar chog‘ishtirish usulidan foydalanadilar. Topshiriq bajarilgach, tahlil uchun "olma" so‘zi ajratildi. Shu so‘z bo‘g‘inlarga bo‘linadi. "Olma" so‘zining ikkinchi bo‘g‘inidagi "m", "a" tovushlarining artikulyasiyasini kuzatish topshiriladi (o‘quvchilar bu tovushlarni ayta turib, partadosh o‘rtoqlarining og‘ziga qaraydi). Suhbat paytida o‘quvchilar "m" tovushini talaffuz qilganda lablarning yumilishi, "a" tovushini aytganda og‘izniig ochilganini o‘rganib oladilar. Shunga o‘xhash ishlarni bajarish natajasida o‘quvchilar til dalillarini kuzatish, jamoada ishlay olish malakalarini egallaydi. Bu ishlar o‘quvchilarni bundan keyingi yanada murakkabroq vazifalarni bajarishga tayyorlaydi.

3-sinfda “Gapda so‘zlarning bog‘lanishi” mavzusini o‘rganishda quyidagi ijodiy topshiriqni bajarish ishi o‘tkaziladi.

1. Gapni so‘zlarga ajrating, har bir so‘zning so‘rog‘ini aniqlang. Qor yog‘di.
2. Nuqtalar o‘rniga tegishli so‘zni qo‘yib, gapni kengaytirib yozing. Qor yog‘di. (oq, ko‘k, qizil, oppoq) - .. Oppoq qor yog‘di.
3. Gapni bugun, qalin so‘zdari yordamida kengaytirib yozing. Bugun oppoq, qalin qor yog‘di.

O‘quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantiruvchi mashqlardan unumli foydalanish dars samaradorligining oshishiga ham yordam beradi. Masalan:

Aqlni charxlash mashqlari. Matematika darsi misolida

Ushbu tavsiya etayotgan mashg‘ulot jamlanmasida aqliy amallarni bajarish uchun mo‘ljallangan mashqlar keltirilgan.

Mashg‘ulot uchun zarur jihozlar: raqamlar va harflar bilan ishslashga mo‘ljallangan mashqlar to‘plami.

O‘qituvchi o‘quvchilardan davra bo‘lib o‘tirib olishlarini so‘raydi. So‘ngra birinchi bosqichda o‘quvchilar sonlar bilan ishslash mashqlarini bajaradilar.

O‘qituvchi topshiriqlarni bera boshlaydi va o‘quvchilar og‘zaki tarzda ovoz chiqarmasdan topshiriqlarni fikran bajarib boshlaydilar. Mashqlar bajarib bo‘lingach har bir mashq qanchalik qiyinchilik tug‘dirgani va kimda qanday o‘zgarish yuz bergenligi muhokama etiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta’lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor qo‘nalishlarini izlanuvchi ta’lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta’limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda qiziqarli va muammoli, mantiqiy topshiriq ta’lim metodlaridan va o‘yindan foydalanish ham maqsadga muvofiq.

Bunda ta’lim jarayoni unumдорligi oshadi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayoni shakllanadi, o‘quvchilarda bilimga ishtyoq va qiziqish oshadi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalari shakllanadi. Bunday topshiriqlar o‘quvchilar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Mantiqiy o‘yinlar, boshqotirmalar bolalarda tabiatdan berilgan aqliy kuchlar sezgilar, ruhiy holatlar, biluvchanlik va faoliyat erkinligini rivojlantirishga yordam berib, bolalarda mustaqil fikr yuritib, oldiga maqsad qo‘ya olish hamda ko‘zlagan maqsadiga yetishish qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

Mantiqiy boshqotirmalar o‘quvchi ijodiy qobiliyatining rivojlanishi uchun zarur sharoit bo‘lib, uning jarayonida shaxs hayotiy tajribaga ega bo‘ladi, atrof-olamni idrok etadi, bilimlarni o‘zlashtiradi, malaka va ko‘nikma hosil qiladi.

Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga, ilmiy-ijodiy izlanishlarga yo‘llaydigan, mantiqiy boshqotirmalarga oid ilmiy faoliyatni tashkil etish, shakl va metodlaridan foydalanish o‘z samarasini albatta beradi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Karimova V.M. Sunnatova R. va boshqalar. Mustaqil fikrlash. Akademik litseylar va kasb- hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma.- T.: SHarq, 2000- 112 b.
2. Kulyutkin YU.N. Tvorcheskoy myshleniye v professionalnoy deyatelnosti uchetelya // Voprosy psixologii –M. : 2004 - № 2 – 21 -30.
3. Ochilov M. YAngi pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. Qarshi.: Nasaf, 200. – 80b.
4. Izmailova E. I. "Fikrlash va eslashni o‘rganish (TRIZ texnologiyasi)" Moskva, ARKTI nashriyoti, 2010 y.
5. Utemov V. V., Zinovkina M. M., Gorev P. M. Ijodkorlik pedagogikasi: ilmiy ijodkorlikning amaliy kursi: darslik. - Kirov: ANOO "Hududlararo CITO", 2013. - 212 p.
6. Sidorchuk T. A. "Syujetli rasm asosida bolalarning ijodiy hikoyalarini chizish" Nashriyotchi: M.: ARKTI Nashr qilingan yil: 2010

**YARMO’TKAZGICHLI TUZILMALARING KVANTLASHGAN  
NUQTALARIDA YORUG’LIKNING YUTILISHI**

**D. X. Tolaboyev<sup>1</sup>, B.J. Axmadaliyev<sup>1</sup>, M.Yu.Yuldasheva<sup>2</sup>**

dilmuhammad00056@gmail.com

tel: +99890 407 00 56

<sup>1</sup>Farg`ona politexnika instituti


<sup>2</sup>Farg`ona shaxar 26-maktab

**Kalit so’zlar:** yorug‘lik, yutilish koeffitsiyenti, kvantlashgan nuqta, spektral tahlil, temperaturaviy tahlil, qutblangan fotonlar.

**Annotatsiya:** Umuman olganda  $\omega$  chastotali yorug‘likning yutilish koefitsiyenti kvant mexanikasining oltin qoidasiga ko‘ra aniqlanadi:


$$K(\omega) = \frac{4\pi^2 e^2}{ncm_0^2 \omega} \sum_{i,f} |\vec{e} \cdot \vec{p}_{fi}|^2 [f(E_i) - f(E_f)] \delta(E_f - E_i - \hbar\omega). \quad (1)$$

Bu munosabatda  $n_\omega$  – yarimo’tkazgichning sindirish koeffitsiyenti,  $m_0$  – erkin elektron massasi. Yorug‘likning yutilishiga barcha boshlang‘ich ( $i$ ) va oxirgi ( $f$ ) holatlar bo‘yicha optikaviy o‘tishlarning ulushlari e’tiborga olinadi,  $f(E)$  – Fermi to‘lqin funksiyasi,  $\vec{e}$  – fotonning qutblanish vektori. Yorug‘likning sirtda yutilish koeffitsiyentini (1) ifoda yordamida aniqlash mumkin, chunki kvantlashgan nuqtalar, odatda, bitta tekislikda o‘stiriladi.



1-rasm. Hajmiy yarim o'tkazgichda elektronlarning energiyaviy spektri va bir zonal optikaviy o'tishlar.  
1  $\longrightarrow$  -elektronlar, 2  $\longrightarrow$  -fononlar.

**Asosiy qsm:** Fermining kvant mexanikaviy oltin qoidasidan foydalansak,



2-rasm. O'lchamli kvantlashgan tizimlarda tok tashuvchilarning vertikal (to'g'ri) optikaviy o'tishlari. Uzluksiz egri chiziq tok tashuvchilarning energiyaviy spektrlari, n=1, 2, 3, 4 –o'lchamli kvantlashgan energiyaviy spektrining tartib raqamlari. Tik vektorlar yordamida optikaviy o'tishlar tasvirlangan.

$$\Delta I = \frac{2(eF)^2 h}{m_0^2(h\nu)} \sum |P_{eh}^i|^2 \delta(E_e^i - E_h^i - h\nu),$$

$F$  – tushayotgan elektrnomagnit to‘lqin elektr maydoni kuchlanganligi,  $\chi_{eh}^i$  -  $i$ -nchi kvantlashgan nuqtadagi o‘lchamli kvantlashgan sathlararo sodir bo‘layotgan optikaviy o‘tishni ifodalovchi impuls operatorining matritsavyiy elementi:

$$|P_{eh}^I|^2 = |P|^2 \int \chi_h^{i*}(r) \chi_e^i(r) dr = |P|^2 |X^i|^2,$$

$|X^i|^2$  -  $i$ -nchi kvantlashgan nuqtadagi berkitish integrali,  $P$  – to‘lqin funksiyalarning tez ossillyasiyaluvchi qismiga nisbatan hisoblangan impuls operatorining matritsavyiy element. Keyn modeliga nisbatan  $E_g >> \Delta$  hol uchun

$$\frac{|P|^2}{m_0^2} \approx \frac{E_g}{2m_e},$$

munosabat o‘rinlidir;  $E_g$  – potensial to‘siqni yuzaga keltiruvchi material(*GaAs*)ning ta’qiqlangan zonasining kengligi.

$X^i$  kattalikning  $i$  kattalikka kuchsiz bog‘langanligi va  $I_0 = c\varepsilon^{1/2}F^2/2ni$  e’tiborga olsak

$$\beta^{QD}(hv) = \frac{he^2\pi}{cm_e\sqrt{\varepsilon}} |X|^2 g(hv), \quad (2)$$

$g(hv)$  – kvantlashgan nuqtada kombinatsiyalangan holatlar zichligi.

Agar yutilish koeffitsiyentining spektral bog‘lanishidagi cho‘qqi kvantlashgan nuqtadagi bittagina optikaviy o‘tish bilan tavsiflansa, u holda sirtiy holatlar zichligi quyidagi ifodadan aniqlanadi

$$N_{Ds} = \frac{1}{2} \int g(hv) d(hv) = \frac{cm_e\sqrt{\varepsilon}}{2he^2\pi|X|^2} \int \beta^{QD}(hv) d(hv). \quad (3)$$

Bunda integrallash maksimum atrofidagi oraliq bo‘yicha olib boriladi, chunki shunday holdagina integral osti funksiyasi integralga asosiy ulushini beradi.

Yutilish koeffitsiyentining spektral bog‘lanishidagi cho‘qqisining ap-  

$$\beta^{QW} \approx \frac{2\gamma\pi}{\sqrt{\varepsilon}}.$$
  
 proksimatsiyasini Gauss funksiyasi yordamida ifodalasak,  
 batni quyidagi ko‘rinishda qayd qilish mumkin

$$\beta_m^{QD} = \sigma^{QD} N_{Ds}, \quad (4)$$

bu yerda

$$\sigma^{QD} = \frac{2\sqrt{\ln 2\pi} h e^2}{cm_e \sqrt{\varepsilon \Gamma}} |X|^2 \quad (5)$$

fotonni kvantlashgan nuqtada tutib qolish yuzasi mazmunini beradi,  $\beta_m^{QD}$  – cho‘qqi  
 balandligi, G – uning yarim balandligiga mos keluvchi kengligi.

**Xulosa:** Oxirgi (4) va (5) ifodalardan kvantlashgan nuqtalarda qutblangan  
 fotonlar yutilishining spektral va temperaturaviy tahlili ko‘rinib turibdi, ya’ni u  $|X|^2$   
 kattalikning tabiatini bilan aniqlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Tolaboyev D. X. KRISTALL PANJARADA ATOMLAR BIR O’LChAMLI ZANJIRINING TYeBRANISHLARINI TEKShIRISH //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 11. – S. 141-150.
- [2]. Akhmadaliev B. Z., Yuldashev N. K., Yulchiev I. I. Surface-Radiative Modes and Longitudinal Excitons in the Spectra of Exciton–Polariton Luminescence //Optics and Spectroscopy. – 2018. – T. 125. – №. 3. – S. 343-352.
- [3]. Rasulov V. R. et al. PHOTON DRAG EFFECT IN p-Te //European Science Review. – 2018. – №. 9-10-1. – S. 249-252.
- [4]. Glaude.W, Borge.V. Quantum semiconductors structures (Fundamentals and Alications), Ac.ress San Diyego, N.Y; Boston, London, Sidney, Tokyo, Toronto.- 1993.-437 .

- [5]. Yusupov F. T. O. G. L. et al. Use of vernier digital laboratory in lessons and lesson activities //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 10. – S. 86-94.
- [6]. Ahmadaliev B. J. et al. The dispersion and photoluminescence spectrum of mixed excitons at critical damping values //Scientific-technical journal. – 2019. – T. 2. – №. 1. – S. 9-14.
- [7]. Nedorezov.S.S Kvantoviye razmerniye effekti v oblasti visokix temperatur// FTT.-1970.-T.11.-№ 8.-S.2269-2276
- [8]. Ahmadaliev B., Yuldashev N. Radiation of exciton-polariton mixed modes in crystals of type CdS in a vicinity of critical value of decay mechanical excitons //Norwegian Journal of development of the International Science. – 2017. – T. 1. – №. 12. – S. 72-85.
- [9]. Wyeisbuch.C, Vinter.B. Quantum semiconductor structures. Fundamentals and Alications Acad. ress;-1991.-273 .
- [10]. Xerman M. Poluprovodnikoviye sverxreshetki: Per. s angl.-M.: Mir,-1989.-240 s.
- [11]. Tolaboyev D. X. et al. STANDART KO ‘RINIShDAGI IZOTROP JISMLARNING O ‘TKAZUVChANLIGI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 11. – S. 565-570.
- [12]. Tokhir R., Fakhriddin Y., Dilmuhammad T. A study in showing logical strategy and demeanor in the middle school //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – T. 5. – №. 7. – S. 7-7.
- [13]. Ergashev S. F. i dr. Razrabotka avtomatizirovannoy sistemy izmereniy energeticheskix xarakteristik solnechnykh energeticheskix ustavovok //Tochnaya nauka. – 2019. – №. 43. – S. 22-27.
- [14]. Rakhmonov T. I., Siddikov R. U., Mirzaaxmedov A. Influence of mechanical deformation on the photo-voltaic properties of thin polycrystalline CdTe, CdSe, CdS films manufactured by portional evaporation in vacuum //Scientific-technical journal. – 2021. – T. 4. – №. 3. – S. 11-21.

- [15]. Rakhmonov T. I., Yuldashev N. K. Photo-tensoelectric properties of thin polycrystalline CdTe, CdSe, CdS films obtained by portional thermal evaporation in a vacuum //Scientific-technical journal. – 2021. – Т. 4. – №. 4. – S. 25-34.
- [16]. Sulaymonov X. M. i dr. Fotoelektricheskiye svoystva poluprovodnikovykh polikristallicheskix plenochnykh struktur CdTe: Sn pri staticheskix mehanicheskix deformatsiyax //Izvestiya Oshskogo texnologicheskogo universiteta. – 2019. – №. 3. – S. 180-186.
- [17]. Nurmatov O. et al. Phototenzoelectric properties of polycrystalline films of chalcogenides of cadmium and zinc, produced by portional evaporation in vacuum //Euroasian Journal of Semiconductors Science and Engineering. – 2020. – Т. 2. – №. 5. – S. 10.

**ИННОВАЦИОННЫЕ РЕФОРМЫ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО  
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

*Марина Кучкарова Ахмедовна*

*Школа №7 в городе Ургенч Хорезмской области*

*Учитель русского языка и литературы*

**Аннотация:** В статье обобщены основные направления реформирования высшего образования в Республике Узбекистан на основании принятого Постановления Президента РУ «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования». Особое внимание отводится педагогическим инновациям в системе высшего образования. Рассматриваются инновационные технологии в учебном процессе высшей школы, деятельность и особенности подготовки преподавателя высшей школы в условиях инновационного подхода к инновационной деятельности.

**Ключевые слова:** Инновационные реформы, система высшего образования, программы развития, национальная модель подготовки кадров.

На современном этапе развития перед Узбекистаном стоят стратегические задачи, среди которых дальнейшее развитие системы образования как важнейшего фактора процветания страны, устойчивого роста экономики, обеспечения занятости населения. Новым импульсом кардинального совершенствования сферы, коренного пересмотра содержания подготовки кадров на уровне международных стандартов стало. Постановление Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года. Вместе с тем утверждена Программа комплексного развития системы высшего образования на период 2017-2021 годы, включающая меры по укреплению и модернизации материально-технической базы вузов,

Dasturni o‘rganuvchilar kompyuter grafikasi haqida to‘laqonli tushunchaga ega bo‘lishlari va grafik redaktorlarda rastrli, vektorli, fraktalli tasvirlani yaratish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Dastur bilan tanishib chiqsak. Quyida dasturning asosiy ishchi oynasi keltirilgan. (2-rasm)

The screenshot shows the 'Learn Graph' software interface. At the top, there's a toolbar with various icons and tabs labeled 'Untitled Tab 1' through 'Untitled Tab 10'. Below the toolbar, the main title 'Learn Graph' is displayed above a sub-header 'matematika o'qitish metodikasi'. On the left side, there's a sidebar titled 'Mavzular' (Topics) containing a list of topics from 1 to 11. The main content area contains a text block in Russian about the software's purpose and features, mentioning web design, UI/UX, and 3D modeling. There are also some decorative icons of a laptop, smartphone, and tablet.

## Dastur asosiy ishchi oynasi (2-rasm)

Bu qismda siz darsliklar bilan tanishish, boshqa foydalanuvchilar natijalarini ko‘rish va muloqot qilish, natijalaringiz grafigini ko‘rish, dastur haqida tanishish kabi bo‘limlar bilan tanishib chiqishingiz mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ushbu «Learn Graph» dasturidan ta’lim jarayonida foydalanilsa, natijada ta’lim samaradorligini oshishiga, talabalarning yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirishga erishiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi PF-4947-soni  
“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g’risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.
2. X.A.Jumanazarovich. «Matematika o’qitish metodikasi» fani o’quv mashg’ulotlarini loyihalab o’qitish metodikasini takomillashtirish. – 2019.
3. Faronov V.V. программирование на языке высокого уровня Java. – M., 2003.

*TVCHDPI talabalari - Qutbiddinova Nafisa, Ismoilov Azizbek*

[qutbiddinovnafisa@gmail.com](mailto:qutbiddinovnafisa@gmail.com)

[azizbekismoilova153@gmail.com](mailto:azizbekismoilova153@gmail.com)

*TVCHDPI o‘qituvchisi - Adambayev Umidbek Xaitbayevich*

[umidbekadambaye@gmail.com](mailto:umidbekadambaye@gmail.com)

## **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola bugungi kunda jamiyatimizda milliy va diniy an’analarning axloqiy tarbiyadagi tutgan o‘rni va amaliy ahamiyati, o‘zbek xalqining azaliy qadiriyatlari to‘g‘risida fikr mulohazalar yuritilgan .

**Kalit so‘zlar:** jamiyat, din, an’ana, qadiryat, axloq.

## **ABSTRACT**

This article discusses the role and practical significance of national and religious traditions in moral education in our society today, the age-old values of the Uzbek people.

Barcha xalqlarning o‘ziga xos milliy an’analari mavjud bo‘lgani singari o‘zbek milliy axloqiy tarbiyasi ham ma’lum odob va e’tiqod, ishonch va mehr – muhabbatning majmuasi hisoblanadi. Insonning axloqiy tarbiyasi o‘zini qanday tuta bilishida namoyon bo‘ladi.

Axloq — jamiyat, zamon, ba’zan insoniyat tarixi uchun namuna bo‘lgan umumbashariy ahamiyatga ega ijobiy xatti-harakatlar yig‘indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma’naviy hodisa[1].

Ilgari kasb o‘rganish tarbiyaning uzviy bo‘g‘ini hisoblangan, yoshlar makatabni bitirganidan so‘ng bir kasbni ( masalan, o‘g‘il bola ota kasb bo‘lgan kulolchilik, temirchilik, bog‘dorchilik, dehqonchilik va boshqa kasblar, qizlar ona

kasbni tikuvchilik, to‘quvchilik, yoki boshqa bir kasbni) egallash an’anasi bo‘lgan. Ko‘rinib turibtiki, kasb o‘rganish tarbiyaning uzviy qismi hisoblangan.

Qadimdan aytib kelinadigan salom, o‘zbekning “Assalomu alaykum” kalomida bir olam ma’no bor. Bilamizki salom berish ozmi – ko‘pmi boshqa millatlarda ham mavjud. Biz o‘beklarda esa tanishlarga ham notanishlarga ham salom berish, o‘rnii kelganda uyga taklif qilishdek ajoyib qadiryatlarimiz mavjud. Tanish – notanishga salom berish, mehmondo‘stlik ko‘rsatish asli inson qadr – qimmatini yuqori qo‘yish natijasida kelib chiqqan odatdir.

O‘zbek millatining mehmon kutish odobi haqida qancha gapirsak ham kam, mehmonni iliq kutib olish, to‘rdan joy ko‘rsatish, mehmon qancha vaqtga tashrif buyurganini hisobga olmay bor noz – ne’matlarni dasturxonga qo‘yish bularning hammasi ayni bir millatga mansub mehmon kutish odobi. Dasturxon atrofida o‘tirganda oilaning kattasi taomlanishni boshlamaguncha ovqatga qo‘l uzatmaslik, dasturxon atrofida baland ovozda suhbatlashmaslik va kulmaslik, kattalar o‘zaro suhbatlashganida kichiklar suhbatga aralashmaslik kabi o‘ziga hos o‘zbek milliy qadirylari kabi boshqa millatlarning ham qadirylari mavjud. Dasturxonga kattalardan oldin qo‘l uzatmaslik, dasturxon atrofida baland ovozda gapirmaslik kabi odatlar e’tibor beradigan bo‘lsak boshqa millatlarda juda kam uchraydi, ular bu odatni keraksiz harkat - deb hisoblaydilar. Ham diniy, ham dunyoviy ahamiyati katta ushbu odatni. Kattalarning va kichiklarning oiladagi o‘z o‘rnini ko‘rsatib, yosh avlodga kattalarni hurmat qilishni o‘rgatadi. Shuningdek oila kattalari bo‘lmish ota – onalar ham farzandlar oldidagi burchlariga ham o‘zbek millatida katta ahamiyat berilgan.

Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy o‘zining “Hayrat ul – abror” asarining bir necha boblari odob – axloq va ta’lim – tarbiya masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu dostonning oltinchi maqolotida odob va kamtarlikni ulug‘laydi. Ta’lim – tarbiyaga doir qimmatli fikr – mulohazalarini bayon qilib, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi. Tarbiyaning muhim jihatlari, bola tarbiyasi, uni o‘stirish va balog‘atga yetkazishda ota – onalarning vazifalari haqida keng fikr yuritadi.

Kanadalik tadqiqotchi Geri Dikning ta’kidlashicha, hozirda G‘arbda Alisher Navoiy asarlarini o‘qishga bo‘lgan ehtiyoj katta. Shuningdek, bobokalonlarimiz Ibn Sino, Imom al – Buxoriy, Al – Xorazimi, Imom at – Termiziylarning yoshlarga qoldirgan oltin merosi ham yosh avlod tarbiyasida katta rol o‘ynaydi[2].

Milliy liboslar, milliy va diniy qadiryatlar, urf – odatlar, an’analalar aslida jamiyatning kelajagi tarbiyasi uchun hizmat qilishi kerak. Har bir jamiyatning o‘ziga hos milliy liboslari mavjud. Dunyoning turli burchaklaridan kelgan mehmonlar o‘zbek milliy liboslariga va madaniyatiga katta ahamiyat beradi. Ular mustaqillik bayramini, navro‘z, hosil bayrami va o‘zbekona to‘ylarni guvohi bo‘ladilar. O‘zbekistondan estalik uchun atlas, do‘ppi, belbog‘, chophon va boshqa me’morchilik uslubida yasalgan estalik sovg‘alarni olib ketadilar. Qadimdan quyoshdan, issiqdan va sovuqdan asrovchi bu liboslar hozirda milliy qadiryatmizga, o‘zbek milliy liboslariga aylangan. Liboslarga tikilgan har bir naqsh ma`no anglatgan. Yosh bola kiyimlari, kelin, yoshi katta erkaklar va ayollar liboslari uchun alohida usulda naqsh solingan.

Dinlar ham dunyo aholisi urf – odatlari, rasm – rusumlariga va qadiryalariga ta’sir ko‘rsatgan. Islom dinini oladigan bo‘lsak, Qur’oni karim, Hadisi sharif, Ijmo va muayyan fatvolardagi mezonlar hamda talablar musulmon sharqi millatlari axloqiy darajasining shakllanishida katta ahamiyat kasb etgan[3].

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 1991 – yilda Qurbon hayiti va 1992 - yildan Ramazon hayitlarining birinchi kunlari dam olish kuni deb belgilandi. O‘zbekiston aholisi asosan musulmonlardan tashkil topgan. Islom dinining muqaddas kitobi – Qur’oni Karimning mazmuni va Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ning hadislari o‘zbek tilida nashr etildi. Bundan tashqari boshqa din vakillari uchun ham ibodatxonalar qurildi[4].

2022 – yilda esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan o‘zbek milliy umumxalq bayrami hisoblangan “Navro‘z bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida“gi qarorni imzoladi[5].

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:**

1. “Axloqshunoslik” darslik Abdulla Sher Toshkent – 2010 7-8-bet
2. “Dunyoni ma’naviy tanazzuldan qutqara oladigan mutafakkir” yoxud Navoiy asarlarini yoshlarga innovatsion usullarda o‘qitish. <https://yuz.uz/uz/news/>
3. “Axloqshunoslik” darslik Abdulla Sher Toshkent – 2010 12-bet
4. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning Diniy bayram “Qurban hayit”ni dam olish kuni deb e’lon qilish haqidagi 20.06.1991 221-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/-190512>
5. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish” to‘g‘risidagi 17.02.2022 134-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5866167>
6. Umidbek Adambayev. (2021). FAITH – THE CONCEPTION OF BELIEF AND STEPS TO DEVELOP IT / ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. – pp. 96-100.
7. U. Adambaev. (2021). CONFIDENCE-NONVERBAL METHODS OF ARGUMENTATION IN THE FORMATION OF THE VERB /Экономика и социум. – С.18-21.
8. Адамбаев, У. Х. (2022). ИШОНЧ-ЭЪТИҚОДНИ ШАКЛАНТИРИШДА АРГУМЕНТЛАШНИНГ ЎРНИ. Academic Research in Educational Sciences, 3(1), 898-905.
9. Умидбек Хайтбаевич Адамбаев, (2022). Ишонч – эътиқодни шакллантиришда урф-одат ва анъаналарнинг таъсири, SCIENTIFIC PROGRESS (pp. 348-351).
10. Адамбаев, У. Х., & Джораев, Д. Ў. (2022). ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТ ВА УНИ ШАКЛАНТИРИШ. Academic Research in Educational Sciences, 3(2), 125-134.
11. Adambayev, U. X., & Rahimberdiyev, S. U. (2022). NAVRO‘Z BAYRAMI VA UNING ETNOMADANIY AHAMIYATI. Academic Research in Educational Sciences, 3(2), 175-177.

12. Umid Adambayev. (2021). MILLIY O’ZLIKNI ANGLASH MILLAT TARAQIYOTINING POYDEVORI / Scientific progress. – pp. 1858-1862.
13. .U. X. Adambayev. (2022). AMIR TEMUR YURITGAN DAVLAT SIYOSATI. PEDAGOGS jurnali, 6(1), 68-71.
14. U.X. Adambayev. (2022). ETNOMADANIYATNING INSONLAR HAYOTIDA TUTGAN O’RNI. Scientific Progress 3 (3), 519-521.
15. U.X. Adambayev. (2022). ZAMONAVIY DUNYO: IJTIMOIY TARMOQLAR INSON RESURSLARINI BOSHQARADI. Scientific Progress 3 (3), 499-501.
16. U.X. Adambayev. (2022). SOG’LOM OILADA MADANIY TARBIYANING SHAKLLANTIRISH. Scientific Progress 3 (3), 502-505.
17. 12. U.X. Adambayev. (2022). JAMOATCHILIK NAZORATI VA UNI TASHKIL ETISHDA YOSHLARNING O ‘RNI VA ROLI. Academic Research in Educational Sciences, 3(4), 260-264.
18. U.X. Adambayev. (2022). XIX АСРНИНГ БОШЛАРИДАТУРКИСТОНДА ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИНИНГ ЭТНОПЕДАГОГИК АҲАМИЯТИ. Academic Research in Educational Sciences, 3(4), 273-279.

**O‘ZBEK XALQINING FOLKLOR SAN’ATI HAMDA TARBIYAVIY  
AHAMIYATI**

*Do’stmurodov Ro’zivoy Sharif o‘g‘li,*

*Qarshiboyev Isroil Xasan o‘g‘li*

*Toshkent viloyati Chirchiq Davlat Pedagogika Instituti, Gumanitar fanlar fakulteti, Milliy g’oya, manaviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi talabasi*

*Ilmiy rahbar: Adambayev Umidjon Xaitbayevich*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada o‘zbek xalqining folklor san’ati, folklor-etnografik jamoalar va ularning rivojlanish tarixi haqida fikr yuritilgan. Dostonlarimiz tarixi hamda o‘zbek xalq ijodida ta’lim va tarbiya jarayoni keng yoritilgan. Folklor xalq ijrochiligidan namunalar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so’zlar:** Folklor, sa’nat, milliy, arxeologiya, doston, an’anaviylik, xalq teatri, xalq og‘zaki ijodi.

**FOLK ART AND EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF THE UZBEK  
PEOPLE**

**ABSTRACT**

This article discusses the folk art of the Uzbek people, folklore and ethnographic communities and the history of their development. The history of epic and the process of education and upbringing in the uzbek folklore are widely covered. Examples of folk songs are given.

**Keywords:** Folklore, art, national, archeology, epic, traditional, folk theater, folklore,

## KIRISH

O‘zbek xalqining folklori – milliy merosining ajralmas qismi, shu bilan birgalikda eng dastlabki namunalaridir. O‘zbek xalq folklori mehnatkash xalqimizning orzu-umidlari, turmush-tarzi, madaniy hayoti, ijtimoiy va milliy ozodlik uchun kurashining ifodasi sifatida gavdalanadi. O‘zbek xalq ijodining mavzu jihatidan serqirraligi, janrlarga boyligi va hayotda tutgan o‘rni ham ana shu bilan bog‘liqdir.

Folklor atamasini 1846-yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo‘lib, «xalq donoligi» degan tushunchani ifodalaydi. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san’at namunalari – me’morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo‘zlik, musiqa, raqs, og‘zaki adabiyot namunalari tushuniladi. Har bir san’at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o‘zi tanlagan turni «folklor» deb ataydi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqslarini, arxitektor xalq me’morchilagini, folklorshunos olim xalq dostonlari, ertaklarini folklor asari deb hisoblaydi.

Dastlabki vaqtarda «el adabiyoti», «xalq adabiyoti», «og‘zaki adabiyot», «og‘zaki ijod» deb yuritilib kelingan o‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi ilk bor H.Zarif Professor M.Saidov ta’rificha, avvalo, og‘zaki ijoddagi dostonlarda she’riy va nasriy parchalardan iborat badiiy manba – matn bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, dostonning musiqasi bo‘lishi lozim. Bu o‘rinda shuni aniqlab olish kerakki, har bir alohida olingen doston uchun alohida yirik musiqa asari bo‘lishi shart emas.

Keyingi yillarda o‘zbek folklori namunalarining ko`plab nashr etilayotgani ham og‘zaki ijodimizga Davlat siyosati darajasida baho berilayotganini ko`rsatuvchi dalildir. 1998 yilning 13 yanvar’ kuni Prezidentimiz I.A.Karimov «Alpomish» dostonining 1000 yilligini nishonlash haqidagi farmonga imzo chekdi. YUbiley tantanalari 1999 yil noyabr oyida Surxondaryoda keng nishonlandi. «Alpomish» dostonining ming yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi, «O‘zbekiston xalq baxshisi» unvoni joriy etildi. Bu esa milliy manaviyatimizning asoslardidan biri bo‘lgan xalq ijodining yuksalishiga xizmat qildi. «Alpomish» dostoni

millatimizning o‘zligini namoyon etadigan, avlodlardan-avlodlarga o‘tib kelayotgan qahramonlik qo‘sishig‘idir, – deb yozadi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o‘zining «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» kitobida. – Agarki, xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas doston bo‘lsa, «Alpomish» ana shu dostonning shoh bayti, desak, to‘g‘ri bo‘ladi»e‘tibor berib kelmoqda. Fikrimizga I. Karimovning «Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch» nomli kitobidagi quyidagi so`zlari dalil bo`ladi: «O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo`q». Zero, xalq og`zaki ijodi namunalari ham ulug` va boy tariximizning bir qismidir. 1999 yildan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini ochish haqida qaror qabul qildi. Mazkur qarorning hayotga tatbiq etilishi natijasida xalq og`zaki ijodi fanini Akademik litseylarda alohida nazariy va amaliy kurs sifatida o`rganishga soatlar ajratilgan. Bu esa talabalar oldiga o`zbek folklori namunalarini mukammal o`rganish hamda ularda ilgari surilgan ezgu g`oyalarni o`zlashtirib olish talabini qo`yadi. Xalq og`zaki ijodi badiiy adabiyotning eng qadimiy turi hisoblanadi. O`zbek folklori jahondagi hamma xalqlar og`zaki ijodida bo`lgani kabi bir qator o`ziga xos belgilariga ega. Bu belgi-xususiyatlar asosan og`zaki shakldagi so`z san`ati namunalarining yozma adabiyot asarlaridan farqlovchi xususiyatlar hisoblanadi. Ularning tartibi haqida folklorshunos olimlarning fikrlari turlicha. Masalan, O. Madev an`anaviylikni folkloarning birinchi xususiyati deb hisoblaydi. Biz quyidagi tartib tarafdarlarining fikriga qo`shilamiz:

Anonimlik;

Og`zakilik va badihago`ylik;

Jamoaviylik va ommaviylik;

Ko`p nusxalilik va tarmoqlilik.

O`zbek xalqi barcha xalqlar kabi juda qadimiy boy va xilma-xil an’analarga ega. Folklorshunos Omonilla Madayev ta’kidlaganidek: «Anonimlik xalq og`zaki ijodida xalq vakillarining o‘z xalqiga xolis, beminnat xizmat qilish namunasi sifatida qadrlanadi».

Asrlar mobaynida xalqimizga juda katta ruhiy va ma’naviy quvvat berib kelayotgan milliy qadriyatlarimizni, folklor an’analalarimizni yoshlar ongiga chuqr singdirish har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Yurtimiz mustaqillikka erishgach bunga keng imkoniyatlar yaratildi. Chunki mamlakatimizda kechayotgan milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy hurlikni his etish ehtiyoji ajdodlarimiz qalb qo‘ri, aql zakovati, turmush tajribasi asosida yaratilgan madaniy merosimizni bilishni va shu asosda turli bunyodkorlik va yaratuvchilik ishlarini amalga oshirishni taqazo etmoqda. Ijodkor xalqimiz tomonidan yaratilgan nodir mahnaviy boylik hisoblangan folklor asarlari asrlar osha turli axloqiy tushunchalarni betakror badiiy shaklda kishilar qalbiga singdirishda bebaxo sarchashma sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Xar bir xalq yoki elat, avvalo tarixi, madaniy birligi bilan ajralib turadi. O‘zbek xalqi ham uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanib, juda ko‘p ilmiy-madaniy xususiyatlarga ega bo‘ldi. O‘tmish ajdodlarimiz an’analari qadriyatları asrdan-asrga, avloddan-avlodga saqlanib, taraqqiy topib keldi. Xususan, milliy-madaniy xususiyatlarimizni saqlanib qolishida xalq ogzaki badiiy ijodining roli beqiyos bo‘ldi. Jumladan, xalqimizni o‘ziga xos urf-odat va marosimlari bola tarbiyasi, mehmonnavozlik tabiat , axloq-odob qoidalari, pazandachilik malakasi, mehnat va turmush tarzi tartiblari folklor asarlari orqali bizgacha yetib keldi. Uzoq o‘tmishda guruh-guruh bo‘lib xalq sayillarida, ommaviy bayramalarda turli tuman tomoshalar ko‘rsatgan xalq qiziqchilari, qo‘girchoqbozlar, dorbozlar, raqqos va xonandalarni ijodiy uyushmalarini folklor ansambilini o‘ziga xos na’munalari deyish mumkin. Chunki folklor asarlarini ommaviy ravishda ijro etuvchilarning aksariyati professional bo‘lmay, balki havaskor ijrochilar bo‘lib ularni repertuari ham sof xalq og’zaki ijodidandir. Xalq ijodiyotini asrash va rivojlantirishda folklor-etnografik ansambli rahbarlarining bu sohadagi ijodiy iqtidori muhim ahamiyatga ega. Ammo bu yo‘lda tinmay izlanish lozim bo‘ladi. Xalqning eng sara qo‘shiqlarini ansamblga jalb qilingan ijrochilarning o‘zidan yozib olish mumkin.

Xorazm xalq teatri an'analarini o'rgangan san'atshunos T.Qilichev tomonidan aniqlangan.Olim 1974-yilning 10-noyabrida To'rtko'l tumanidagi «Qirqqizobod» jamoa xo'jaligida yashovchi 70 yashar Bibi momo Qoziyevadan sumalak pishirish paytida o'ynaladigan «Ashshadaroz» nomli xalq o'yinining etnografik tavsifi va qo'shiqlarini yozib olganalliflar asarlarining kiritilishi zamonaviy ohanglarni kuchaytirish, shuningdek, milliy qadriyatlar ustuvorligini taminlashga xizmat qiladi. Bunday yangi qo'shiqlar va mualliflar asarlari vatanparvarlik, Vatan tuyg'usi bilan to'lib-toshgan hozirgi kunimiz qahramonlarining qalb istaklarini aks ettiruvchi asarlar bo'lib, yoshlar tarbiyasiga alohida ta'sir ko'rsatadi. Unutmaslik kerakki, ko'pincha xalq qo'shiqlarining qayta ishlangan va badiiy sayqal berilgan namunalari aholining estetik didi va badiiy so'zni his qilish ko'nikmasiga, ko'hna musiqa folkloriga nisbatan ko'proq ma'qul va mos boladi. Shuning uchun folklor etnografik ansamblari repertuari shakllanishining dastlabki bosqichlarida qayta ishlangan qo'shiqlarga shuningdek, qo'shiq mualliflarining folklor uslubida xalq ruxiyatiga mos yaratgan qo'shiqlariga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Bunda folklor ansambl repertuariga mualliflar asarlarini puxta o'ylab, asarga tanqidiy yondashib saralash nihoyatda muoim. Ayniqsa, tanlab olingan materiallar ansambl ijodiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq bo'lishi, ijob etiladigan asar ansambla shakllangan ijob uslubiga mos kelishi lozim. Qutb yulduzini «Temur qazunuq» deyish ham shundandir. «Temir qoziq» demakdir. Chunki osmon buning ustida aylanadi»

## **XULOSA**

Xalq og'zaki ijodi xalq san'atining boshqa turlaridan: doston, askiya, epos, tasviriy va amaliy san'at hamda boshqalardan og'zaki so'z san'ati ekanligi bilan ajralib turadi. U og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga, davrdan-davrga o'tib, xalqning iste'dodli vakillari ijrosida sayqal topadi. Folklor asarlari dastlab qanday yaratilgan bo'lsa, o'sha holicha yangi ma'lumotlar bilan boyitilib, tarixiy sharoitga moslashib, shu bilan birga yozma adabiyotga ijobiy ta'sir etadi.

O’zbek xalq folklori, xalq udumlari, urf-odatlar, mavsumiy marosimlar an’anaviyligi, turli-tuman hodisalarini tabiat hodisalariga ta’sir ko‘rsatishiga intilishi bilan ijtimoiy hayotda katta o‘rin tutadi. Marosimlarni o’tkazish paytida ijo etiladigan doson va askiyalar marosimlar folklorini tashkil etadi.

## **REFERENCES**

1. Introduction to Folklore. London, 2008. Page7
2. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B.32-33
3. Madayev.O. O’zbek xalq og’zaki poetic ijodi. Toshkent: “ Mumtoz so’z” – 2011.B.15.
4. T.Qilichevning «Xorazm xalq teatri» (Toshkent, Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988, 70-75-betlar)
5. M Jo‘rayev. Folklorshunoslik asoslari. – T., 2009

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TEXNIKA FANLARINI  
O'QITISHNING O'ZIGA XOS METODIKASI VA TA'LIM SIFAT  
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV**

*To'rayev Xurshidjon Xasanjon o'g'li*

*Toshkent Davlat Transport universiteti Magistratura 2-bosqich talabasi*

**Annatatsiya:** Ushbu maqola oliy ta'lismuassasalarida zamonaviy yondashuv - o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan u yoki bu tasnifga tegishli bo'lishi haqida.

**Kalit so'zlar:** Vaqt taqsimoti, sifat samaradorligi, pedagogik faoliyat, didaktik metodlar.

O'zbekiston Respublikasida ta'lismuhasebe o'tkazilayotgan tub islohotlarning mazmuni bugungi kunda ta'lismuhasebe yondashuv bilan boyib bormoqda. Ta'limga zamonaviy yondashuv ta'lismuhasebe yondashuv bilan yordamida samarali boshqarish va qo'yilgan o'quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Boshlang'ich sinflarda ta'lismuhasebe yondashuv bilan oshirishda zamonaviy yondashuv –vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagog jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimdir. Ta'lismuhasebe texnologiyalari pedagogik faoliyatning ma'lum sohasini qamrab oladi. Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish o'quvchilarning bilim faoliyatini mavzu bo'yicha belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o'qitish metodlari yordamida tashkil etish demakdir. Oliy ta'lismuhasebe sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv - o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan u yoki bu tasnifga tegishli bo'ladi. Ularning samaradorligi to'g'risida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo'naltira oladigan, o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash barcha ta'lismuhasebe yondashuv bilan oshirishda zamonaviy yondashuv bilan aloqador kontseptsiyasidir. “Oliy ta'lismuhasebe sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv dastlab pedagog ongida faoliyatning umumlashgan loyihasi tarzida mavjud bo'ladi. Bu loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlarining o'zaro tutashuvi tekisligida, o'qitish va o'qishning aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metodning boshqa namoyon bo'lish shakllari yo'q, sababi

umumiyl holda o’qitish metodi o’zida faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi”. Boshlang’ich sinflarda ta’lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv faol va sust guruhlarga ajratish hollari mavjud. Agar har bir metodbelgilangan u yoki bu maqsadni yechishda o’z o’rnida ishlatilsa, shubhasiz, faoldir. Talim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv ham darsda o’quvchilar faoliyatining yuqori darajasini ta’minalash asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratiladi. Shu boisdan, bu faslda hali pedagogik jarayon uchun notanish bo’lgan chet el didaktikasiga oid metodlar haqida fikr yuritiladi. Dars jarayonida aqliy hujumdan maqsadli foydalanish ijodiy, nostonart tafakkurlashni rivojlantirish garovi hisoblanadi. “Aqliy hujumni” uyushtirish bir muncha sodda bo’lib, undan ta’lim mazmunini o’zgartirish jarayonida foydalanish bilan bирgalikda ishlab chiqarish muammolarining yechishni topishda ham juda qo’l keladi. Dastlab guruh yig’iladi va ular oldiga muammo qo’yiladi. Bu muammo yechimi to’g’risida barcha ishtirokchilar o’z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kimning o’zga kishi g’oyalariga hujum qilish yoki baholashga haqqi yo’q.

Oliy ta’lim muassalarida darslarni matnlar berilgan bo’lib, shulardan biri “Alisher Navoiy” matnidir. Matn badiiy va ilmiy uslubda berilgan. Mashq shartida matnlarni taqqoslab, ularning o’xshash va farqli tomonlarini aniqlash topshirilgan. Mazkur matnni “Aqliy hujum” metodi yordamida o’rganish ko’zlagan maqsadga erishish imkoniyatini yaratadi. Bu metod asosida matn bilan bir necha bosqichda olib boriladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tolipov O. Umumiyl pedagogika Toshkent: 2007-y.
2. Yo’ldashev O. Pedagogika Toshkent: 2008-y.
3. Xasanboeva O. Oila pedagogikasi. Toshkent: 2007-y.
4. Daminov T, Adambekova T. O’yin mashg’ulotlari. Toshkent: 1993-y

**YURTIMIZDA AVTOMOBIL YO’LLARI HAMDA SVETOFORDAN  
FOYDALANISHNING ABZALLIKLARI VA MUOMMOLARI,  
INoVATSION SVETOFORLARNING QO’LLANILISHI**

*Namangan viloyati kasdbiy talimni rivojlanirish va  
muvofiglantirish boshqarmasi  
To’raqo’rg’on tuman 2-sonli kasb-hunar maktabi  
ishlab chiqarish talimi ustasi*

***M.Shaxobiddinov***

**Annotatsiya:** ushbu maqolada bugungi kunda respublikamizda avtomobil magistrali rivojlanishi, kommunikatsion tehnologiyalar rivojlanib borayotgan davirda mazkur sohada bo’layotgan kamchilik va yangiliklar to’g’risida o’quvchilarga tushunchalar berish maqsad qilib belgilangan.

**Kalit so’zlari:** Magistiral, avtomobilsozlik, avtomobil yo’lari, transport aloqalari svetofor, piyodalar,xaydovchilar, Inavatsion svetoforlar, LED lampalari, sensor moslama.

Respublikamizda hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivijlanishda avtomobilsozlik sanoati va tiransport tizimining rivojlanishi hamda transport infrastruktururasining eng muhim yo’nalishlaridan biri magistral avtomobil yo’llari tarmog’ini rivojlanirish bo’lib, bu yo’llardan yaqin va uzoq davlatlar bilan transfort aloqasini hamda piyodalarning qatnovlarida qulayliklarni oshirishdir.

Piyodalar o’tish joylarida svetofor o’rnatilgan bo’lib, Ushbu piyodalar o’tish joylarida avtomobillar qatnovlari juda ko’pligi kuzatiladi. Shuningdek avtomobillarga qaraganda piyodalarning qatnovlari ham undan ziyod. Svetoforni avtomobillarga qizil chiroqlari yonganda piyodalarga yashil chiroqlari yonadi.

Demak avtomobillar to’htashi va piyodalarni yo’lni kesib o’tish jarayonida bazi xollarda bir piyoda uchun ikki taraf yo‘lida o’nlab mashinalar to‘xtab turadi. Piyoda

o‘tib ketganidan so‘ng ham yashil yonishini kutib turish kerak. Bu esa yo‘llarda harakatni cheklaydi. Transport vositalarining keraksiz to‘xtab turishlariga sabab bo‘ladi. Avtomobillar piyodalar o’tish joyiga yaqinlashib to’htash chizig’ida oldinda kelayotgan avtomobillar to’htaganda orqada kelayotgan avtomobilarni oldindagi avtomobilarga yetib olib avarya holatlari ko‘p uchraydi. Piyodalar ham svetofor chiroqlariga qaramay yo’lni kesib o’tuvchilar kuzatiladi. Ming afsuski, gohida piyodalar yo‘lning belgilanmagan



qismlaridan kesib o‘tishi tufayli, gohida haydovchilarning tezlik qoidalariga amal qilmasligi natijasida nohush hodisalar yuz berib turadi. Yurtimizda yosh xaydovchilar yoki qimmat baho mashinalarni minib olgan, xaydovchilak kurslarida o‘qimagan, xaydovchilik guvohnomasi yo‘q, ota-onasini erkatoy bolalari tomonidan gohida tezlik balantligi, yo‘l belgilariga, yo‘l harakati qoydalariga amal qilmasliklari natijasida nohush hodisalar keltirib chiqazadi. Shularni inobatga olgan xolda aholiga orasida siminarlar tariqasida tushunchalar va maruzalar bilan oddiy aholiga ma’lumotlar berib borishimiz lozim. Xaydovchilarga ushbu holatlar bo‘yicha kerakli choralarini va harakat havfsizligini, masofa saqlashlari hamda qoydalarga amal qilishlari boyicha keraklicha ma’lumotlarni yetkazish uchun axborot markazlari orqali ham axoli orasiga kirib borishimiz lozim.

Svetoforlar mavzusida so’z borar ekan yurtimizda inavastzion svetoforlar qo’llanilishi yo‘llardan piyodalar, qariyalar hamda nogironlar uchun qulayliklari yaratilib borilmoqda.

## **Inovatsion svetoforlar**

Toshkent shahar IIBB YHXBdan ma'lum qilishlaricha, ushbu innovatsion svetoforning o'rnatilishi piyoda, ayniqsa, bolalarning yo'llardagi xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Yo'lakchaga kelishingiz bilan sensor moslama ishga tushadi va avtomobillar uchun qizil chiroq yonadi. Bu texnologiyada inson omili ishtirok etmaydi Shahardagi ayrim joylarda piyodalar o'tish joyi tugmalar orqali boshqarilishini ko'rish mumkin. Bu ayrim fuqarolar tomonidan tugmalar doimiy bosib turilishi yoki faqat yashil chiroq yonib turishi uchun tugmachani bog'lab qo'yish holatlari kuzatilmoqda. Innovatsion svetofor esa sensor orqali boshqariladi. Piyodalar o'tish yo'l belgilari ham LED lampalari orqali yoritiladi.



Kunlar o'tgani sayin svetoforlarning ham yangicha talqinlari yaratilb insonlarga foydali hususiyatlari bilan o'rnatilib kelinmoqda.

Kuni kecha poytaxtimizning ayrim tumanidagi maktablar yonidagi piyodalar o'tish yo'lagiga innovatsion svetofor o'rnatildi. E'tiborli jihat shundaki, piyodalarga qulaylik yaratish hamda ularning xavfsizligini ta'minlash maqsadida o'rnatilgan ushbu svetofor sensorda boshqariladi.

Mazkur ko'chada transport vositalari juda ko'p harakatlanadi. Bundan tashqari, hududda maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab joylashgan bo'lib, bolalar yo'lining ayni shu qismidan o'tishlariga qulaylik yaratish maqsadida o'rnatildi.

Ko'zi ojiz piyodalar uchun ham qulaylik yaratish maqsadida yurtimiz shaharlari ko'chalarida ilk bor "ovozli svetafor o'rnatildi. Respublika Ichki ishlari

vazirligi tomonidan tuzilgan ishchi guruhi mamlakatimizdagi ko‘zi ojiz va ko‘rish qobiliyati zaif bo‘lgan bolalar maktab-internatlariga yaqindan yordam berish maqsadida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqarilganini malum qilgan. Va shu asosida viloyatlarimizda ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Viloyatlardagi IIB yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi tomonidan o‘rnatalgan “ovozli svetofor” piyodalarga har bir chiroq yongani va harakatlanish mumkin yoki mumkin emasligi haqida ovozli xabar berib, ogohlantiradi.

– Maktabimiz oldidagi katta yo‘ldan o‘tish biz uchun ko‘p noqulaylik tug‘dirardi, qo‘rqardik, – deydi maktab-internat o‘qituvchisi Zokir Maxamatov. – Chunki, shu paytgacha avtomashinalarning ovozini eshitgan holda, ularning yaqin yoki uzoqdaliginichamalab yo‘lni kesib o‘tardik. Bu svetofor biz va o‘quvchilarimiz uchun katta qulaylik bo‘ldi.

Shahardagi ayrim joylarda piyodalar o‘tish joyi tugmalar orqali boshqarilishini ko‘rish mumkin. Bu ayrim fuqarolar tomonidan tugmalar doimiy bosib turilishi yoki faqat yashil chiroq yonib turishi uchun tugmachani bog‘lab qo‘yish holatlari kuzatilmoqda. Innovatsion svetofor esa sensor orqali boshqariladi. Piyodalar o‘tish yo‘l belgilari ham LED lampalari orqali yoritiladi.

Mazkur svetoforlar kunduzi quyoshdan quvvat oladi. Olgan quvvati tun bo‘yi bemalol yetadi. Bundan tashqari, qo‘sishimcha o‘rnatalgan chiroqlar haydovchilarni hushyorlikka chorlaydi. Bu esa piyodalar ishtirokidagi turli xil xavf-xatarlarning oldini olishga yordam beradi.

Mutaxassislarning aytishicha, kelgusida mazkur loyihani aholi gavjum joylarga keng tatbiq etish ko‘zda tutilmoqda, deya xabar bermoqda O‘ZA.

Yurtimiz shifokorlari fuqorolarga qarata ularning farzandlariga etiborli bo‘lishlarini, Ko‘cha – kuyda tartib – qoydalarga, xarakat – xavfsizligi qoydalariga amal qilishlariga chaqirishlarini so‘raydi. Asosiy etiboprlarini tiransfortlar qatnovi, fiyodalar o‘tish yo‘lakchalaridan o‘tayotgan chog‘larida telifotdan foydalangan xolda quloglariga qulogchainlar taqib yurishlari oqibatida ko‘flab transfort va fuforolar xalokati keitirib chiqarishiga sabab bo‘layotganini takitlashmoqda

Yo'llarda xarakat xavfsizligini yo'ga qo'yuvchi hodimlar xam ko'flab yosh haydovchilarni ota-onalari olib bergan so'ngi rusumdagি tiransfortvositalarini kata tezliklar bilan boshqarishlari tufayli shunday oqibatlar sodir bo'moqda deb takitlashmoqda.

Ayni damda bir yo'naliши yo'naliши bo'yicha so'zni olib borar ekanmiz, kasb – hunar mакtabimizda ushbu soha bo'yicha dars berib borayotgan ustozlarimiz ko'p ulardan yo'l harakati qoidalari fanidan dars berib kelayotgan Qosimov Hamiduiio domlamiz bilan birgalikda yangi tahrirdagi Yo'l harakati qoidalari 2022 yil 12-Aprel kuni o'zbekiston respublikasi vazirlar maxkamasining yo'l xarakati qoidalariни tastiqlash to'g'risidagi 172 sonli qarori qabnul qilindi. Ushbu qaror bo'yicha 1- maydan boshlab amalga kiritilayotgan yangiliklar hamda servis belgilariga kiritilgab qo'shilgan belgilar boyicha keraklicha maxoratlar bilan ertalabki saflanishlarda kasb – hunar mакtabi bo'yicha barcha yo'naliшдаги o'quvchilariga faol o'quvchilar binan , hamda dars mashg'ulotlarida esa jixozlangan honalarda Ilg'or pedagogik tehnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarni bilimlari va ko'nikmasi shakillantirib bormoqdamiz. Ushbu yangi taxrirdaga Yo'l harakati qoidalari bo'yicha telividiniyalarda va boshqa sayitlarda tanishtirish ishlari olib borilmoqda.

Biz quyidagi belgilarni axborot nashiryotlari orqaliy ham yoritib berish istagidamiz .

Yuqorida aytib o'tilgan yangi taxrirdagi servis bilgilardan





Ushbu belgilarda ko’rsatilgan joylarga belgida ko’rsatilgan masofalar qolganligi xaqda ma’lumot beridi.

Yangi qaroga ko’ra axoli po’nkitlarida transpot vositalarini soatiga 70 kilometirdan, mакtab va maktabgacha talim muassasalari atroflaridagi yo’llarda 300 metirgacha masofada soatiga 30 kilometirdan turar joy daxalari va yondosh hududlarda uy joy binolari orasidagi yo’llarda soatiga 20 kilometirdan oshirmsandan harakatlanishga ruhsat etiladi.

Bulardan tashqari piyodalar o’tish joylarida transport vositalarini

Piyodalar o’tish joylarida transport vositalarini to’xtatish taqiqilanadi. Piyodalar o’tish joylarida eski qoyda bo'yicha 5 metir masofada taqiqilanar edi yangi qoyda bo'yicha transport vositalarini to’xtatish 10 metir masofaga o’zgartirilgan.




Yangi qarorga ko’ra engil avtomobillarda yuk tashishga mo’ljallangan tom qismidagi yukning balandligi bir metirdan oshmagan holda maxsus moslamalar bilan maxkamlangan va uzunligi avtomobilni uzunligidan yarim metirdan oshmagan holda tashish belgilandi.



Yuk avtomobili yo’ning faqat o’ng tomonidan xarakatlanishlari korsatib o’tildi. transport vositalarini qayrilib olish joylarida hamda unga 30 metir yetmasdan yoki o’tib to’htash taqiqlanadi.



Kunning qorong'u vaqtisi yoki yetarlicha ko'rinxaymaydigan vaqtida volosofetchilar nur qaetaruvcchi kiyimlarda bo'lishlari shuningdek so'tkaning qorong;u vaqtilarida piyodalar kiyimlarida nur qaytaruvchi elementlar bo'lishi tavsiya etilishini ko'rsatib o'tilgan.



**Foydalilanilgan internet saytlari:**

1. [www.xit.uz](http://www.xit.uz)
2. [wikipedia.org](http://wikipedia.org)
3. [prom.uz](http://prom.uz)
4. [daryo.uz](http://daryo.uz)

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabalari*

*Tashmetova Mavluda Alisher qizi*

*Nizamov Sarvar Zayniddinxon o‘gli*

*Ilmiy rahbar: TVCHDPI o‘qituvchisi*

*Adambayev Umidbek Xaitbayevich*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lmish “Mahalla”ga berilayotgan e’tibor va rivojlantirish uchun qilinayotgan harakatlar haqida mulohaza qilinadi.

### **Kalit so‘zlar**

Mahalla, jamiyat, jamoa, qadiryat, urf-odat, qo‘ni-qo‘sniqchilik, Mahalla tinchligi va obodligi.

### **Kirish:**

Yurtimizda jamiyat o‘z-o‘zini boshqarishning an’anaviy usuli bu mahalladir. Mahalla shu so‘z mazmunida butun olam ezguliklari, urf -odat va an’analari, qaynoq taftini mujassam qilgan. Qadimdan faqatgina odamlarning urug‘ jamoasigina emas, balki ishlab chiqarish manfaatlari bilan ham birlashtirib turgan bo‘g‘in bu mahalla bo‘lgan. Asli “Mahalla” atamasi arabcha so‘z bo‘lib, o‘rin-joy degan ma’noni anglatadi.[1] U turli hududlarda joy, guzar, jamoa, elat nomlar bilan atalib kelingan. Mahallani boshqarish jamoatchilik asosida olib boriladi. Mahalla kichik ma’muriy xudud bo‘lishi bilan birga, turmush tarzi, qadriyatlar, an’analar, urf-odatlar umumiyligi bilan bog‘langan kishilar jamoasi birligidir. Tarixning turli bosqichlarida davrlar, tuzumlar o‘zgarishiga qarab mahallaning vazifalari xam o‘zgarib turgan. Fuqarolik jamiyatining eng muhim insitutlaridan biri bo‘lgan mahalla instituti haqida gap ketganda aytish mumkinki, qadim-qadimdan xalqimizning milliy turmush va tafakkur tarziga aylanib ketgan jamoa bo‘lish, bir

mahalla bo‘lib yashash tuyg‘usi ijtimoiy hayotning ham uzviy qismi sifatida katta bir ma’naviy qadriyat deb qaralgan. Insonning jamoa bo‘lib yashashga bo‘lgan ehtiyoji odamlarning ko‘payishi oqibatida paydo bo‘lganligi to‘g‘risida, dastlab Forobiyning «Fozil shahar aholisining maslagi» asarida[2], keyinchalik esa Abu Ali ibn Sinoning «Uy xo‘jaligi to‘g‘risida»gi risolasida: «Insonlar jamoa bo‘lib yashashlari uchun o‘zaro muloqotda, turli munosabatda bo‘lishlari, bir birlarining ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilishlari va umumiy intilish, maqsadga ega bo‘lishlari lozim», – degan fikri orqali rivojlantirildi[3]. Shu bilan birga, mutafakkir jamiyatda insonlar o‘zaro yordam asosida yashashlari kerak, deb alohida ta’kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniyning fikricha, inson o‘z ehtiyojlarini tushunib, o‘ziga o‘xshash kishilar bilan birga jamoa bo‘lib yashashning zarurligini anglay boshlashi o‘ziga xos kelishuvchanlik shartnomasiga oid munosabatlarning kelib chiqishiga[2,97.b], shuningdek, mahalla tushunchasining paydo bo‘lishiga asos yaratdi.

Darxaqiqat Mahalla xalqimizning turmush tarzi, ruhiy-ma’naviy ehtiyojidan kelib chiqib, mafkuraviy ongni va tafakurini, insonlarning o‘zaro aloqalraini, oilaviy munosabatlarini shaklantirishda va qo‘ni-qo‘shnichilik, quda-andachilik shu kabi masalalarga yechim topuvchi nodavlat tashkilot hisoblanadi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, mahallalarga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tabiricha “qaysi mahallada ish to‘g‘ri tashkil etilib, fuqarolar bilan yaqin hamkorlik o‘rnatilgan bo‘lsa, o‘sha yerda hamjihatlik, mehr-oqibat muhiti hukm surmoqda, noxush holatlarga yo‘l qo‘yilmayapti”[1,2.b]. Shu bois yurtimizda amalga oshirilayotgan izchil va tizimli islohatlarning keng tizimli bosqichida mahallalarni yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvatlash davr taqozosidir. Shu bois Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 3-fevral kuni qabul qilingan “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[4] farmonga muvofiq fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarini samaradorligni oshirish, mahalla inistitutin fuqarolarga yaqin va xalqchil tizimga aylantirish, fuqarolar yig‘inlarining oliy manfaatlarni yuzaga

keltiradigan uyushmaga birlashish huquqlarini ro‘yobga chiqarish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rfiy va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro aloqalarni yanada rivojlantirish ko‘zda tutilgan edi. Bunga ko‘ra ohirgi besh yil mobaynida fuqarolar yig‘inlarining 1600 ga yaqin xizmat binolarining 367 tasi kapital ta’mirlandi va 350 dan ortig‘i rekonstruksiya qilindi, namunaviy loihalar asosida 216 ta bino yangidan barpo qlinib foydalanishga topshirildi. Ushbu farmonga binoan 2018-yil 1-dekabiriga qadar shaharlar markazi va tumanlarda “Mahalla markazi” majmuoalarining binolarni modirnizatsiyalandi va yangidan barpo qlindi.[5] Bundan kornib turibtiki mahallalarni rivojlantrish maqsadida olib borilayotgan islohatlar misol qiladigan bo‘lsak 2022- 2026 yilgi “Taraqiyot strategiyasi” davlat dasturining 3-maqsadiga binoan “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslari zamon talablariga moslashtirish”[6]. Bunga ko‘ra mahalliy ijob hokimiyat organlari demokratik tamoilar asosida shaklantirish, mahalliy hokimliklarni moliyaviy ta’mintoni kengaytirish, mahalliy hokimliklarning boshqaruv faoliyatiga AKTni keng joriy qilish ko‘zlanmoqda.

### **Xulosa:**

Xulosa qilib aytganda, mahalla instituti bugungi kunda jamiyat va davlat ijtimoiy hayotining eng jo‘shqin, faol, qaynoq va jonli maskaniga aylanib bormoqda. Yurtboshimiz mahallalarda to‘planib qolgan muamolarni va kamchiliklarni samarali yechish, tinch-totuvlikni asrab-avaylash yo‘lida barcha sa’y-harakatlarni birlashtirish kerakligini takiddadilar. Bundan ko‘rinib turibtiki yurtimizda mahalla institutini rivojlantirish, qo‘lab-quvatlash va moddiy ta’minlash o‘z samarasin bermoqda. Bundan rivojlanishlar va berilayotgan e’tiborlar xalqimiz ko‘ngliga xush kelmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. “Xalq so‘zi” 2017 yil, 23 mart. 26-soni.
2. Faxridin Husanov. Ma’naviyat yulduzlari. –T.: O‘zbekiston ,1999. 67–68-97-bet.

3. М.М. Xayrullayev. O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. – Т.: O‘zbekiston, 1995. - 67-b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 3-fevraldaggi PF-4944-son. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 69-modda.
5. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.12.2018-y., 06/18/5597/2300-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28-yanvardagi PF-60-son. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.
7. Umidbek Adambayev. (2021). FAITH – THE CONCEPTION OF BELIEF AND STEPS TO DEVELOP IT / ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING. – pp. 96-100.
8. U. Adambaev. (2021). CONFIDENCE-NONVERBAL METHODS OF ARGUMENTATION IN THE FORMATION OF THE VERB /Экономика и социум. – С.18-21.
9. Адамбаев, У. Х. (2022). ИШОНЧ-ЭЪТИҚОДНИ ШАКЛАНТИРИШДА АРГУМЕНТЛАШНИНГ ЎРНИ. Academic Research in Educational Sciences, 3(1), 898-905.
10. Умидбек Хайтбаевич Адамбаев, (2022). Ишонч – эътиқодни шакллантиришда урф-одат ва анъаналарнинг таъсири, SCIENTIFIC PROGRESS (pp. 348-351).
11. Адамбаев, У. Х., & Джораев, Д. Ў. (2022). ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТ ВА УНИ ШАКЛАНТИРИШ. Academic Research in Educational Sciences, 3(2), 125-134.
12. Adambayev, U. X., & Rahimberdiyev, S. U. (2022). NAVRO‘Z BAYRAMI VA UNING ETNOMADANIY AHAMIYATI. Academic Research in Educational Sciences, 3(2), 175-177.
13. Umid Adambayev. (2021). MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH MILLAT TARAQIYOTINING POYDEVORI / Scientific progress. – pp. 1858-1862.

14. U. X. Adambayev. (2022). AMIR TEMUR YURITGAN DAVLAT SIYOSATI. PEDAGOGS jurnali, 6(1), 68-71.
15. U.X. Adambayev. (2022). ETNOMADANIYATNING INSONLAR HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI. Scientific Progress 3 (3), 519-521.
16. U.X. Adambayev. (2022). ZAMONAVIY DUNYO: IJTIMOIY TARMOQLAR INSON RESURSLARINI BOSHQARADI. Scientific Progress 3 (3), 499-501.
17. U.X. Adambayev. (2022). SOG’LOM OILADA MADANIY TARBIYANING SHAKLLANTIRISH. Scientific Progress 3 (3), 502-505.
18. U.X. Adambayev. (2022). JAMOATCHILIK NAZORATI VA UNI TASHKIL ETISHDA YOSHLARNING O ‘RNI VA ROLI. Academic Research in Educational Sciences, 3(4), 260-264.
19. U.X. Adambayev. (2022). XIX ACPNING BOШЛАРИДА ТУРКИСТОНДА ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИНИНГ ЭТНОПЕДАГОГИК АҲАМИЯТИ. Academic Research in Educational Sciences, 3(4), 273-279.

## TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

<b>№</b>	<b>The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi</b>	<b>Page / Страница / Sahifa</b>
<b>1</b>	THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH OF A PERSON	<b>4</b>
<b>2</b>	MAKTABDA ONA TILI PREDMETI VA ONA TILI METODIKASINING ZAMONAVIY USULLARI UNING MAZMUNINI MODDIYLASHTIRISH DARAJALARI	<b>8</b>
<b>3</b>	BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI IJODIY FIKRLASHGA O‘RGATISHDA MUSTAQIL ISHLARNING O’RNI	<b>11</b>
<b>4</b>	O‘QUVCHILARDA IJODIY FIKRLASH, MUAMMOLARNI HAL ETA OLISH VA BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH PSIXOLOGIYASI	<b>15</b>
<b>5</b>	YARMO’T KAZGICHLI TUZILMALARNING KVANTLASHGAN NUQTALARIDA YORUG’LIKNING YUTILISHI	<b>25</b>
<b>6</b>	ИННОВАЦИОННЫЕ РЕФОРМЫ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	<b>31</b>
<b>7</b>	THE CONCEPT OF PHYSICAL EDUCATION	<b>35</b>
<b>8</b>	TASVIRIY SAN’ATNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O’RNI VA UNI O‘RGATISH METODIKASI	<b>39</b>
<b>9</b>	АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДИСТАНЦИОННОГО ЗОНДИРОВАНИЯ ЗЕМЛИ	<b>53</b>
<b>10</b>	MAKTABDA ONA TILI PREDMETI VA UNING MAZMUNINI MODDIYLASHTIRISH DARAJALARI	<b>68</b>
<b>11</b>	MATEMATIKA O‘QITISHNING UMUMIY MAQSADI	<b>71</b>
<b>12</b>	ОСОБЕННОСТИ ЖЕНСКОЙ ПРОЗЫ В ИСТОРИИ ЛИТЕРАТУРЫ	<b>74</b>
<b>13</b>	OLIY TA’LIM TIZIMIDA DASTURLASH VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANLARINI O‘QITISHNI TAKOMILLASTIRISHDA AMALIY DASTURLAR YARATISH	<b>80</b>
<b>14</b>	MILLIY VA DINIY AN’ANALARNING AXLOQIY TARBIYADAGI ROLI	<b>87</b>
<b>15</b>	O‘ZBEK XALQINING FOLKLOR SAN’ATI HAMDA TARBIYAVIY AHAMIYATI	<b>92</b>
<b>16</b>	OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TEXNIKA FANLARINI O‘QITISHNING O’ZIGA XOS METODIKASI VA TA’LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV	<b>98</b>
<b>17</b>	YURTIMIZDA AVTOMOBIL YO’LLARI HAMDA SVETOFORDAN FOYDALANISHNING ABZALLIKLARI VA MUOMMOLARI, INoVATSION SVETOFORLARNING QO’LLANILISHI	<b>100</b>
<b>18</b>	MAHALLAM – FUQAROLIK JAMIyatining POYDEVORI	<b>108</b>

**Note!—Pedagogs || articles and numbers in the legal, medical, social, scientific journal, information in classes, information rights and the correct authorities are responsible for the accuracy of the authorities.**

**Editor in chief  
Saidova Mohinur Jonpo'latovna**

**Executive Secretary  
Abdurahmonov Boburjon**

**Preparing for publishing  
Xoliqov Toxirjon Shavkatjon o'g'li**